

“TASDIQLAYMAN”

**Samarqand davlat veterinariya
meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti**



X.B.Yunusov

yanvar 2025-yil.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA
CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISH QO‘MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETIDA COHA XODIMLARINING XIZMAT
FAOLIYATIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH VA
MANFAATLAR TO‘QNASHUVINI OLDINI OLIH
BO‘YICHA TAYYORLASH, QAYTA TAYYORLASHGA OID
O‘QITISHGA UMUMIY VA MAXSUS O‘QUV KURSUNING
MA‘RUZA MATNI**

Samarqand– 2025 yil

MA'RUZA REJASI

Kirish

1. Manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi, turlari, subyektlari va uning oldini olishga oid cheklovlar.
2. Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va tartibga solish sohasida tashqi va ichki nazorat
3. Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 03.01.2017 yildagi O'RQ-419-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini yanada samarali tashkil etish to'g'risidagi Nizom (2024 yil 8-oktyanrdagi 369-sonli bo'yrug'i)
5. Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "komplayens nazorat" tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha me'yoriy hujjatlar.
6. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning huquqiy asoslari
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, (16.06.2021-yildagi PF-6247-son).

Xulosa

O'zini o'zi nazorat qilishga oid savollar

Mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar

Foydalanishga tavsiya etiladigan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar

KIRISH

“Korrupsiyaga qarshi madaniyat” shakllanmagan jamiyatda adolatsizlik va jinoyatlar odat tusiga aylanadi. Shu sababli ham har bir demokratik davlat o‘z rivojlanish konsepsiyasida ishbu illatga qarshi kurashishga qaratilgan choralarni ko‘radi. Xususan, O‘zbekistonda bu borada bir nechta samarali tashabbuslar amalga oshirildi, masalan, korrupsiyaga qarshi kurashishga oid xalqaro hujjatlar ratifikatsiya qilindi, milliy qonunchilik ishlab chiqildi, davlat organlariga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarishda kelib chiqadigan korrupsiyaviy xatarlarni baholash tizimi joriy etildi, byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish va shu kabi boshqa bir qancha loyihalar amalga oshirildi.

Ammo, amaliyot ko‘rsatib turibdiki, mamlakat doirasida erishilgan yutuqlar, korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligi vazifalariga to‘liq javob bermaydi. Aynan shu sababli, Prezidentimiz o‘z chiqishlarida, korrupsiyaga qarshi kurash masalasiga qayta va qayta tuhtalib o‘tmoqda. Xususan, 2024 yil 5 iyun sanasida “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonunni imzolanganligini bunga misol sifatida keltirib o‘tshimiz mumkin.

O‘z navbatida, mazkur Qonunni tayyorlashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6 iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6257-sonli Farmoniga muvofiq Adliya vazirligiga Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi va Bosh prokuratura bilan birgalikda “Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonunni ishlab chiqish bo‘ycha belgilangan vazifasi bizga asos bo‘lib xizmat qildi.

Ushbu topshiriq ijrosi yuzasidan ISO 37001: “Korrupsiyaga qarshi kurashish menedjment tizimlari” xalqaro standarti asosida Adliya vazirligi tizimida shakllantirilgan korrupsiyaga qarshi kurashish menedjment tizimidagi manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish amaliyotini tahlil qilish hamda xorijiy davlatlar va xalqaro ekspertlarning tavsiyalari asosida “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonunni ishlab chiqildi.

O‘z navbatida, mazkur Qonun 30 mingdan ortiq davlat organlari va boshqa tashkilotlarda faoliyat yuritayotgan boshqaruv shtat birligida hisobda turgan xodimlar tomonidan amal qilishi lozim bo‘lgan hujjat hisoblanadi hamda ushbu majburiyatni bajarishda ularga bir qator vazifalarni yuklaydi. Ushbu ma’ruza matni ham aynan shu vazifalarni bajarishga yo‘naltirilgan.

Mavzudan kelib chiqib, o‘quv mashg‘ulotning maqsadi va vazifalari

qo‘yidagilardan iborat:

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvavhilik va biotexnologiyalar universitetida faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchilar va xodimlarining mehnat (xizmat) faoliyatida manfaatlar to‘qnashuvi vaziyatlarini oldini olish va tartibga solish bo‘yicha kasbiy ko‘nikmalarini chuqurlashtirishdan iborat.

O‘quv mashg‘ulotining vazifalari – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvavhilik va biotexnologiyalar universitetida faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchilar va xodimlarining: manfaatlar to‘qnashuvi tushunchasi, turlari, subyektlari va uning oldini olishga oid cheklovlar;

- manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish va tartibga solishning huquqiy asoslari; manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish va tartibga solish sohasida ishtirok etuvchi davlat organlari va boshqa tashkilotlar hamda ularning vakolatlari;
- manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash va hisobini yuritish tartibi va manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash, tartibga solish hamda ta’sir choralarini ko‘rish bo‘yicha savodxonliklarini rivojlantirish.

1- MAVZU: Manfaatlarni to'qnashuvi tushunchasi, turlari, subyektlari va uning oldini olishga oid cheklovlar.

REJA

1. Mavjud manfaatlarni to'qnashuvi
2. Ehtimoliy manfaatlarni to'qnashuvi
3. Qonunni davlat xaridlari sohasida tatbiq etilishi.
4. Manfaatlarni to'qnashuvining oldini olish va tartibga solishning huquqiy asoslari.
5. Mavjud manfaatlarni to'qnashuvini tartibga solish
6. Ehtimoliy manfaatlarni to'qnashuvini tartibga solish.

Manfaatlarni to'qnashuvi tushunchasiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, oddiy qilib tushuntirilganda manfaatlarni to'qnashuvi bu shaxsning bevosita yoki bilvosita shaxsiy manfaati mansab (xizmat) majburiyatlarini obyektiv va xolis bajarishiga ta'sir ko'rsatuvchi yoki shunday ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan vaziyat tushuniladi.

Shu bois, "Manfaatlarni to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunda manfaatlarni to'qnashuvi quyidagicha tushuncha berilgan:

"Manfaatlarni to'qnashuvi – shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlarni to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlarni to'qnashuvi) vaziyat" (*O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlarni to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasi*).

Mazkur tushuncha bo'yicha o'z navbatida, korrupsiyatsiyaga qarshi kurashish xalqaro tashkilotlari tomonidan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Xususan: BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasida manfaatlarni to'qnashuvini deklaratsiya qilish bo'yicha majburiyatlar, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan 2003-yildagi Davlat xizmatida manfaatlarni to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha qo'llanmasi.

Ushbu hujjatlarga ko'ra, manfaatlarni to'qnashuvi uch turda mavjud bo'lishi mumkinligi keltirib o'tilgan, ya'ni: **mavjud, ehtimoliy va taxminiy** turdagi manfaatlarni to'qnashuvlar.

Mazkur turdagi manfaatlarni to'qnashuvini tartibga solishda xorijiy davlatlarning qonunchiligida ikki turdagisi bo'yicha qonuniy mexanizmlar ishlab chiqilgan, bu mavjud va ehtimoliy manfaatlarni to'qnashuvi bo'yicha. Taxminiy manfaatlarni to'qnashuvi bo'yicha esa, uni aniqlash va tartibga solish masalalari murakkabligi bois ushbu turdagi manfaatlarni to'qnashuvi ayrim vaziyatlari bo'yicha cheklovlar belgilab o'tilgan.

Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi – davlat organi va boshqa tashkilot xodimi yoki unga aloqador shaxslarning shaxsiy manfaatdorligi (shu jumladan shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlar) bilan dalvat tashkilotlari manfaatlariga bevosita yoki bilvosita qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan vaziyat;

Ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi – davlat organi va boshqa tashkilot xodimi yoki unga aloqador shaxslarning shaxsiy manfaatdorligi (shu jumladan shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlar) bilan dalvat tashkilotlari manfaatlariga bevosita yoki bilvosita qarama-qarshilik yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat.

Shu bilan birga, mazkur tushunchadagi “shaxsiy manfaatdorlik” kimlarning manfaatlarini ko‘zlab mehnat (xizmat) majburiyatlarini bajarmaslik yuzasidan aniqlashtirib berilgan. Xususan, shaxsiy manfaatdorlik deganda davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi yoxud u bilan aloqador shaxslar ushbu xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita qaror qabul qilinishi yoki xodimning ushbu jarayonda boshqacha tarzda ishtirok etishi natijasida olishi mumkin bo‘lgan har qanday naf yoki afzallik tushunilishi belgilangan.

O‘z navbatida, **aloqador shaxs** toifasiga quyidagilar kirishi ko‘rsatib o‘tilmoqda:

- ✓ davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining yaqin qarindoshlari, ya’ni ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o‘g‘illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari;
- ✓ davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi va (yoki) uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa, o‘sha yuridik shaxs;
- ✓ davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi yoxud uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsda boshqaruv organining rahbari yoki a’zosi bo‘lsa, o‘sha yuridik shaxs.

Undan tashqari **Qonun to‘liq tatbiq etiladigan obyektlar** (*keyingi o‘rinlarda – davlat organlari va boshqa tashkilotlar*):

- ✓ davlat organlari;
- ✓ mahalliy davlat hokimiyati organlari;
- ✓ davlat muassasalari;
- ✓ davlat unitar korxonalarini;
- ✓ davlat maqsadli jamg‘armalari;
- ✓ ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz miqdorda;
- ✓ undan ortiq bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlariga.

Quyidagi obyektlarda Qonun davlat xaridlari sohasida tatbiq etiladi:

O‘z ustav fondida (ustav kapitalida) davlat organlarining yoki boshqa tashkilotlarning ulushi jami 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslarga nisbatan, hamda ushbu yuridik shaxslarning o‘z ustav fondida (ustav kapitalida) ulushi jami 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslarga. Shu o‘rinda, Qonun bilan ushbu tashkilotlardagi barcha xodimlarga mazkur Qonun talablari tatbiq etilmasdan, davlat organlari va boshqa tashkilotlarda mehnat shartnomasi (kontrakt) asosida yoxud saylab qo‘yiladigan yoki tayinlanadigan lavozimlarda mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan **boshqaruv xodimi** nazarda tutilgan.

Xususan, Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari klassifikatori (XALIKK-2020)ga asosan boshqaruv xodimlari – boshqaruv funksiyalarini amalga oshiruvchi, xodimlarga rahbarlik qiluvchi, zarur qarorlarni ishlab chiquvchi va qabul qiluvchi, tashkilot faoliyatini rejalashtiruvchi, nazorat qiluvchi va jarayonlarni tartibga soluvchi, zarur qarorlar qabul qilish uchun ma’lumotlar tayyorlovchi xodimlar. Boshqaruv xodimlari tashkilotning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlar va vazifalarga erishishi uchun zarur tashkiliy-texnik shartlarni, yuklangan funksiyalar va ishlab chiqarish dasturlari bajarilishini ta’minlaydilar.

Boshqaruv xodimlari rahbarlarga va boshqaruv xodimlari mutaxassislariga bo‘linadi.

Mazkur toifadagi xodimlarga texnik xodimlar, xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar, mutaxassislar, ishchilar va ishlab chiqarish xodimlar kirmaydi.

Mazkur Qonunning asosiy prinsiplari sifatida quyidagilar belgilab berilgan:

- ❖ qonuniylik;
- ❖ fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning va davlatning qonuniy manfaatlarini ustuvorligi;
- ❖ ochiqlik va shaffoflik;
- ❖ xolislik;
- ❖ korrupsiyaga nisbatan murossasizlik.

Davlat organlari yoki boshqa tashkilotlar manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish sohasida:

- ❖ xodimlar tomonidan mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida xabardor qilish tizimini tashkil etadi;
- ❖ ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyaning va mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnomaning belgilangan shaklini o‘zining rasmiy veb-saytlariga joylashtiradi; manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilgan holda qabul qilingan qarorlarni belgilangan tartibda o‘zgartiradi yoki bekor qiladi;
- ❖ manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilgan holda tuzilgan bitimlarni o‘zgartiradi yoki bekor qiladi yoxud bunday bitimlarni haqiqiy emas deb topish

to'g'risida belgilangan tartibda sudga da'volar bilan murojaat etadi;

❖ odob-axloq komissiyalarining va maxsus bo'linmalarning manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish bo'yicha faoliyatini tashkil etadi;

❖ davlat organlarida yoki boshqa tashkilotlarda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha ichki idoraviy tartibni belgilaydi;

❖ aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha xizmat tekshiruvining xolisona tashkil etilishini va uning natijalari odob-axloq komissiyalari tomonidan ko'rib chiqilishini ta'minlaydi;

❖ manfaatlar to'qnashuvining oldini olishda o'rnak bo'layotgan xodimlarni rag'batlantirish choralari ko'radi;

❖ manfaatlar to'qnashuvi natijasida fuqarolarga, tashkilotlarga, jamiyatga yoki davlatga yetkazilgan zararning o'rni qoplanishini ta'minlash, shuningdek aholining tegishli davlat organiga yoki boshqa tashkilotga bo'lgan ishonchini tiklash choralari ko'radi.

Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va tartibga solishning huquqiy asoslari:

Mamlakatdagi korrupsiya ko'rsatgichlarining yuqoriligi, uning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy barqarorligi va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, korrupsiyaga qarshi kurash har qanday huquqiy davlatning asosiy siyosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatdagi korrupsiya ko'rsatgichlarining yuqoriligi, uning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy barqarorligi va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, korrupsiyaga qarshi kurash har qanday huquqiy davlatning asosiy siyosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

O'z navbatida, manfaatlar to'qnashuvini tartibga soluvchi huquqiy asoslar ko'rsatib o'tiladigan bo'lsa, unda: "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi, "Davlat xaridlari to'g'risida"gi, "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi, "Sudlar to'g'risida"gi, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi, "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi qonunlarda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va tartibga solish bo'yicha umumiy talablar belgilangan. Biroq, ularni amalga oshirishning aniq mexanizmi mavjud emasligi huquqni qo'llash amaliyotida ko'plab muammolarni keltirib chiqarayotganligi, ushbu muammo 2024-yil 5-iyunda Prezidentimiz tomonidan "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonun (keyingi o'rinlarda – Qonun) imzolanishi bilan tartibga solinishiga xizmat qildi.

Mazkur Qonun bilan quyidagi shakllarda manfaatlar to'qnashuvini oldining olish bo'yicha choralar va cheklovlar belgilanmoqda:

➤ mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabar berish;

- ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida deklaratsiyani ishga kirayotgan nomzodlar, xodimlar tomonidan yilda bir marotaba va xodimga aloqador shaxslar tomonidan ushbu xodim mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan tashkilotga murojaatga qilganida taqdim qilish;
- xizmat mavqeini suiiste‘mol qilish orqali shaxsiy naf olishga;
- manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi axborotni oshkor etish chog‘ida ma‘lumotlarni yashirishga yoxud bila turib yolg‘on yoki noto‘g‘ri axborot taqdim etishga;
- biri boshqasiga bo‘ysunuvchi yoki biri boshqasining nazoratidagi tashkilotlarda o‘rindoshlik bo‘yicha ishlashga, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno;
- tijorat tashkilotlarining ta‘sischisi (aksiyadori, ishtirokchisi) bo‘lishga, bundan aksiyadorlik jamiyatlarining erkin muomalada bo‘lgan aksiyalarining o‘n foizigacha egalik qilish hollari mustasno. Bunda, ushbu cheklov faqat davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat maqsadli jamg‘armalarining xodimlariga, davlat muassasalarining va davlat unitar korxonalarining, o‘z ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlarining rahbarlariga nisbatan tatbiq etiladi;
- o‘zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan davlat organi yoki boshqa tashkilotning nazoratida bo‘lgan tadbirkorlik faoliyati subyektining aksiyalariga yoki ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga egalik qilishga, shuningdek ushbu tadbirkorlik faoliyati subyektlarining boshqaruv organi a‘zosi bo‘lishga, bundan O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarida nazarda tutilgan yoki bu faoliyat qonunchilikka muvofiq lavozim majburiyatlari hisoblanadigan hollar mustasno. Bunda davlat organi yoki boshqa tashkilot nazoratida bo‘lgan tadbirkorlik faoliyati subyektlarining aksiyalariga yoki ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga egalik qilgan yoxud mazkur tadbirkorlik faoliyati subyektlarining boshqaruv organlari a‘zosi bo‘lgan shaxs mazkur davlat organida yoki boshqa tashkilotda xodim lavozimini egallagan hollarda, u qonunchilikda belgilangan tartibda ushbu aksiyalarni yoki ulushlarni bir oy ichida realizatsiya qilishi, boshqaruv organlarining a‘zolidan chiqishi kerak;
- o‘zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan davlat organlarida yoki boshqa tashkilotlarda o‘ziga taalluqli bo‘lgan ishlarni ko‘rib chiqishda yoki o‘ziga aloqador shaxslarga taalluqli bo‘lgan ishlarni ko‘rib chiqishda vakil sifatida ishtirok etishga, agar u qonunchilikka muvofiq qonuniy vakil bo‘lmasa;
- o‘zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan tashkilotning mol-mulkini sotib olishda yoki ijaraga olishda o‘zi ishtirok etishga haqli emas.

Shuningdek, ushbu jarayonda davlat organi yoki boshqa tashkilotning xodimiga aloqador shaxslar ham ishtirok eta olmaydi. Bundan tashqari, davlat organining yoki boshqa tashkilotning o'zi bilan mehnat shartnomasi tugatilgan yoki xizmatdan bo'shatilgan xodimi ikki yil ichida oxirgi ish joyida o'zi bevosita yoki bilvosita nazoratni amalga oshirgan tashkilotlar yoki ularning tarkibiy bo'linmalari tomonidan ishga ushbu xodim mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirgan tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi nazorat bo'linmasi vazifasini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslarning xulosasiga asosan qabul qilinadi.

Oxirgisi manfaatlar to'qnashuvining "**aylanma eshiklar**" shakli hisoblanadi. Bunda, agarda mazkur holat o'rganilmagan taqdirda, kelgusida manfaatlar to'qnashuvi vaziyatlari kelib chiqish ehtimoli mavjud. Bundan tashqari, nazorat ostidagi tashkilotga nisbatan ustuvorlik berish orqali uning kamchiliklarini yashirish holatlarini tekshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

"Aylanma eshiklar" vaziyatlaridan biri:

Manfaatlar to'qnashuvi, agar tashkilotga nisbatan davlat tomonidan nazorat funksiyalarini amalga oshiruvchi mansabdor shaxs ushbu tashkilotdan ishga joylashish bo'yicha taklif olgan taqdirda yuzaga keladi. Mansabdor shaxs o'ziga berilgan vakolatlardan, shuningdek norasmiy aloqalardan, ushbu tashkilotga norasmiy xizmatlar ko'rsatish maqsadida yon bosish ustuvorlik ko'rsatish holatlari kelib chiqishi mumkin.

Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish masalalari quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Mavjud manfaatlar to'qnashuvini tartibga solishda:

- 1) davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi mavjud manfaatlar to'qnashuvi o'ziga ma'lum bo'lib qolgan paytdan e'tiboran **bir ish kuni ichida** mavjud manfaatlar to'qnashuvi haqidagi belgilangan shakldagi xabarnomani to'ldirishi va o'zining bevosita rahbariga (tashkilot rahbariga — yuqori turuvchi rahbarga) yoki maxsus bo'linmaga taqdim etishi shart;
- 2) davlat organlari yoki boshqa tashkilotlar tarkibiy bo'linmasining rahbari mavjud manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha o'z vakolatlari doirasida ko'rilgan choralarda to'g'risida maxsus bo'linmaga **bir ish kuni ichida** axborot taqdim etishi shart (Qonunning 16-moddasi);
- 3) maxsus bo'linma ko'rilgan choralarning yetarliligi (to'g'riligi) to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish uchun axborotni **uch ish kuni** ichida o'dob-axloq komissiyasiga taqdim etadi (Qonunning 16-moddasi);
- 4) davlat organlarining yoki boshqa tashkilotlarning o'dob-axloq komissiyasi mavjud yoki ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvlari to'g'risida **har yarim yilda** xulosa qabul qiladi hamda ularni tartibga solish bo'yicha ko'rilgan choralarning

yetarlilikini (to'g'riligini) ko'rib chiqadi (Qonunning 25-moddasi);

5) maxsus bo'linma aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi hollarining hisobini Manfaatlar to'qnashuvini hisobga olish reestriga kiritadi.

Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvini tartibga solishda:

1) davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi shaxsga doir ma'lumotlari o'zgargan taqdirda, ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyani to'ldirishi va **har yili 15-yanvardan kechiktirmay** maxsus bo'linmaga taqdim etishi kerak;

2) kadrlar bilan ishlash bo'linmalari ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi har yilgi deklaratsiyani **har yili 15-fevralgacha** umumlashtiradi va tahlil qiladi;

3) kadrlar bilan ishlash bo'linmalari ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha choralarning yetarliligini (to'g'riligini) ta'minlash uchun **har yili 1-martga qadar** odob-axloq komissiyasiga taklif kiritadi;

4) kadrlar bilan ishlash bo'linmalari odob-axloq komissiyasi tomonidan qabul qilingan xulosaga asosan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish yuzasidan choralar ko'rish to'g'risida davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining **bevosita rahbariga yoxud davlat organining yoki boshqa tashkilotning yuqori turuvchi rahbariga** taklif kiritadi.

Biroq, davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimligiga nomzod ishga qabul qilinayotganda yoxud davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimi boshqa ishga o'tkazilayotganda, ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etganidan keyin kadrlar bilan ishlash bo'linmalari yuqoridagi ishlarni **besh kunlik muddatda** amalga oshiradi.

Yuqoridagi holatlardan tashqari, davlat organlari va boshqa tashkilotlar manfaatlar to'qnashuvi vaziyatlarini tartibga solish yuzasidan ularning hususiyatlaridan kelib chiqib quyidagi choralardan biri ko'riladi:

✓ o'ziga nisbatan manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan rahbarning bevosita bo'ysunuvidagi davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimini manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelmaydigan boshqa rahbarning bo'ysunuviga o'tkazish;

✓ davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimini manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kollegial organ tarkibidan ixtiyoriy ravishda o'zini o'zi rad etishi orqali yoki majburan chetlashtirish;

✓ davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining lavozim majburiyatlari yoki xizmat vakolatlari doirasini qayta ko'rib chiqish;

✓ davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining davlat organining yoki boshqa tashkilotning manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan axborotidan va hujjatlaridan foydalanishiga cheklovlar belgilash;

- ✓ davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining yakka tartibda qarorlar qabul qilishga doir vakolatlarini qonunchilikka muvofiq amalga oshirishi ustidan kollegial nazoratni ta'minlash;
- ✓ davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimiga o'zidagi shaxsiy manfaatdorlikni qonunchilikka muvofiq bartaraf etishi to'g'risida takliflar taqdim etish;
- ✓ xodim tomonidan o'zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan davlat organining yoki boshqa tashkilotning manfaatlariga zid bo'lgan shaxsiy manfaatdorligidan voz kechishi;
- ✓ davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining shaxsiy manfaatdorligini bartaraf etish choralarini ko'rish mumkin bo'lmagan taqdirda, xodimning roziligi asosida uni avvalgi lavozimiga teng boshqa lavozimga o'tkazish yoki mehnat shartnomasini (kontrakti) umumiy asoslarda bekor qilish.

2-MAVZU: MAVZU: MANFAATLAR TO‘QNASHUVINING OLDINI OLISH VA TARTIBGA SOLISH SOHASIDA TASHQI VA ICHKI NAZORAT

REJA

1. Manfaatlarni to‘qnashuvining oldini olish va tartibga solish sohasida nazorat tashqi va ichki shakllari
2. Manfaatlarni to‘qnashuvini tekshirish va boshqarish
3. Huquqiy oqibatlarni fuqarolik tartibda aloqador shaxslarga va aybdor shaxslarga nisbatan quyidagi ko‘rinishda ta‘sir choralari ko‘riladi

Manfaatlarni to‘qnashuvining oldini olish va tartibga solish sohasida nazorat tashqi va ichki shakllarda amalga oshirilishi.

Tashqi nazorat shakli - O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan amalga oshirilsa, ichki nazorat shakli maxsus bo‘linma (ya‘ni, kadrlar bilan ishlash bo‘linmalari va (yoki) korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari) tomonidan amalga oshiriladi.

Qonunning 9-moddasiga muvofiq Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi mazkur sohada maxsus vakolatli davlat organi sifatida hisoblanishi bilan birga quyidagi ishlarni amalga oshirishi belgilanmoqda:

- ✓ manfaatlarni to‘qnashuvi bilan bog‘liq axborotni va materiallarni davlat organlaridan yoki boshqa tashkilotlardan so‘rab oladi va o‘rganadi;
- ✓ davlat organlarining yoki boshqa tashkilotlarning manfaatlarni to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;
- ✓ davlat organlarining yoki boshqa tashkilotlarning manfaatlarni to‘qnashuvi bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish sohasidagi faoliyatini, shu jumladan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida o‘rganadi;
- ✓ manfaatlarni to‘qnashuvi bilan bog‘liq holatlar aniqlanganda, bitimni bekor qilish, qarorni hamda boshqa hujjatni o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risida davlat organlariga yoki boshqa tashkilotlarga taqdimnoma kiritadi yoxud ularni haqiqiy emas deb topish haqida sudga da‘vo kiritadi;
- ✓ Manfaatlarni to‘qnashuvini hisobga olish reestrining, mavjud manfaatlarni to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnomaning hamda ehtimoliy manfaatlarni to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyaning namunaviy shakllarini tasdiqlaydi;
- ✓ davlat organlari yoki boshqa tashkilotlar uchun manfaatlarni to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha uslubiy tavsiyalarni e‘lon qiladi;
- ✓ manfaatlarni to‘qnashuvi natijasida fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning manfaatlariga yetkazilgan zararining o‘rni to‘liq qoplanishiga erishilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

✓ maxsus bo‘linmalar xodimlarining tizimli ravishda malakasini oshirishni, ularda tegishli ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o‘qitishni tashkil etadi;

✓ ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya etmaganlik bilan bog‘liq ma‘muriy huquqbuzarlik haqida bayonnomani tuzadi va uni ko‘rib chiqish uchun sudga yuboradi.

O‘z navbatida, mazkur yo‘nalishda ichki nazoratni korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari va kadrlar bilan ishlash bo‘linmalari tomonidan Qonunning 12-moddasiga quyidagi vakolatlarni amalga oshiriladi:

✓ davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi tomonidan aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi hollari to‘g‘risidagi axborotni umumlashtiradi;

✓ davlat organining yoki boshqa tashkilotning ushbu Qonun talablarini buzgan xodimiga nisbatan xizmat tekshiruvini o‘tkazadi;

✓ davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimlari o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish yuzasidan qonunchilikka muvofiq tushuntirish ishlarini amalga oshiradi;

✓ ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalarni, shuningdek mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnomani ko‘rib chiqadi, ularning natijalariga ko‘ra o‘dob-axloq komissiyasiga takliflar kiritadi;

✓ davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi xabarlarini munosabati bilan manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi yoki mavjud emasligi to‘g‘risida xulosa beradi;

✓ davlat organlarida yoki boshqa tashkilotlarda aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi hollarini tahlil qiladi hamda ularni tartibga solish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqadi;

✓ davlat organlarida yoki boshqa tashkilotlarda ushbu Qonun talablariga rioya etilishi holati to‘g‘risidagi har yilgi hisobotlarni tayyorlaydi hamda hisobotlar uning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta‘minlaydi.

O‘z navbatida, davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimi tomonidan ushbu Qonun talablariga rioya etilishi ustidan nazorat ushbu davlat organida yoki boshqa tashkilotda tuzilgan o‘dob-axloq komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Qonunning 11-moddasiga asosan o‘dob-axloq komissiyasi quyidagi ishlarin amalga oshiradi:

❖ davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimi tomonidan ushbu Qonunda belgilangan talablarga rioya etilishini ta‘minlash choralarini ko‘radi; manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish yuzasidan ko‘rilayotgan choralarning yetarliligi (to‘g‘riligi) haqidagi masalalarni ko‘rib chiqadi;

❖ mavjud manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq hollar ustidan kollegial

nazoratni amalga oshiradi;

❖ ushbu Qonunda belgilangan talablarning davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimlari tomonidan buzilishlari mavjudligi (mavjud emasligi) to'g'risida xizmat tekshiruv natijalariga ko'ra xulosa chiqaradi;

❖ manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabar qilmagan, bila turib yolg'on yoki noto'g'ri axborot taqdim etgan yoxud bunday axborotni yashirgan xodimni javobgarlikka tortish haqida davlat organining yoki boshqa tashkilotning rahbariga taklif kiritadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Qonuning 10-moddasiga asosan dvlrat organlari yoki boshqa tashkilotlar manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish sohasida quyidagi vakolatlarni amalga oshiradi:

✓ xodimlar tomonidan mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabardor qilish tizimini tashkil etadi;

✓ ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyaning va mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi xabarnomaning belgilangan shaklini o'zining rasmiy veb-saytlariga joylashtiradi;

✓ manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilgan holda qabul qilingan qarorlarni belgilangan tartibda o'zgartiradi yoki bekor qiladi;

✓ manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilgan holda tuzilgan bitimlarni o'zgartiradi yoki bekor qiladi yoxud bunday bitimlarni haqiqiy emas deb topish to'g'risida belgilangan tartibda sudga da'volar bilan murojaat etadi;

✓ odob-axloq komissiyalarining va maxsus bo'linmalarning manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish bo'yicha faoliyatini tashkil etadi;

✓ davlat organlarida yoki boshqa tashkilotlarda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha ichki idoraviy tartibni belgilaydi;

✓ aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha xizmat tekshiruvining xolisona tashkil etilishini va uning natijalari odob-axloq komissiyalari tomonidan ko'rib chiqilishini ta'minlaydi;

✓ manfaatlar to'qnashuvining oldini olishda o'rnak bo'layotgan xodimlarni rag'batlantirish choralari ko'radi;

✓ manfaatlar to'qnashuvi natijasida fuqarolarga, tashkilotlarga, jamiyatga yoki davlatga yetkazilgan zararning o'zni qoplanishini ta'minlash, shuningdek aholining tegishli davlat organiga yoki boshqa tashkilotga bo'lgan ishonchini tiklash choralari ko'radi.

Manfaatlar to'qnashuvini aniqlash quyidagi manbalardan olingan ma'lumotlarni o'rganish orqali amalga oshiriladi:

- ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyadan;
- davlat xaridlari jarayonida olingan takliflardan, xarid komissiyasi

majlislarining bayonnomalaridan, tuzilgan shartnomalardan;

- jismoniy va yuridik shaxslarning davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining faoliyatidagi mavjud manfaatlar to‘qnashuvi yoki ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi murojaatlaridan yoki xabarlaridan;
- tijorat tashkilotlarining affillangan shaxslari va yakuniy naf oluvchilari (benefitsiarlari) ro‘yxatlaridan;
- O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining tadbirkorlik subyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish modulidan;
- «FHDYO Yagona elektron arxivi» axborot tizimidan;
- “Yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo apparat-dasturiy majmuidan;
- Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysidan;
- maxsus vakolatli davlat organi tomonidan o‘tkazilgan o‘rganish natijalari bo‘yicha kiritilgan taqdimnomadan.

Ushbu manbalardan ma’lumotlar olish maxsus bo‘linma, ya’ni kadrlar bilan ishlash bo‘linmalari va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari rahbarining so‘rovi bo‘yicha amalga oshiriladi.

Davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining ommaviy axborot vositalariga, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog‘iga joylashtirilgan mavjud manfaatlar to‘qnashuvi yoki ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi holatlari ular to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash va o‘rganish orqali aniqlanadi.

O‘z navbatida, manfaatlar to‘qnashuvini quyidagi bosqichlarda tekshirish imkoniyatlari mavjud:

xodimlar tomonidan ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi yillik deklaratsiyalari ma’lumotlarni tekshirish;

mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi **xabarnolmarani tekshirish;**

jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlar to‘qnashuvi vaziyatlari to‘g‘risidagi **murojaat va xabarlarini o‘krib chiqishda.**

Jismoniy va yuridik shaxslarning xodimdagi mavjud yoki ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida davlat organlariga va boshqa tashkilotlarga kelib tushgan har bir murojaati yoki xabari qonunchilikda belgilangan tartibda va muddatlarda ko‘rib chiqiladi hamda tekshiriladi.

Manfaatlar to‘qnashuvini tekshirish va boshqarish.

Tekshirish davomida aniqlangan manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilganligi bilan bog‘liq hollar to‘g‘risidagi ma’lumotlar odob-axloq komissiyasi tomonidan maxsus bo‘linma taqdim etganidan keyin o‘n ish kuni ichida ko‘rib chiqiladi.

Odob-axloq komissiyasi davlat organining yoki boshqa tashkilotning rahbariga manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etish bo‘yicha choralarni ko‘rish yoxud xodimni tegishli javobgarlikka tortish to‘g‘risida taklif kiritadi.

Davlat organlari yoki boshqa tashkilotlar Manfaatlar to‘qnashuvini hisobga olish reestrini inson resurslari tomonidan to‘ldiriladi.

Mavjud yoki ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvlari manfaatlar to‘qnashuvini hisobga olish reestriga quyidagi asoslarga ko‘ra kiritiladi:

- ✓ davlat organlariga yoki boshqa tashkilotlarga ishga qabul qilishda nomzod

tomonidan taqdim etilgan deklaratsiya asosida mavjud manfaatlar to'qnashuvi aniqlanganda;

✓ davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi boshqa ishga o'tkazilgan taqdirda, o'zidagi mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi axborotni xabar qilganda;

✓ davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimi tomonidan taqdim etiladigan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi har yilgi deklaratsiya asosida mavjud manfaatlar to'qnashuvi aniqlanganda;

✓ mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabarnoma taqdim etilganda;

✓ ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida deklaratsiya taqdim etilganda;

✓ rasmiy elektron ma'lumotlar bazalari orqali davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimida manfaatlar to'qnashuvi aniqlanganda;

✓ kelib tushgan murojaatga yoki xabarga asosan davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimida manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi tasdiqlanganda;

✓ qonunchilikda belgilangan tartibda o'tkaziladigan xizmat hamda boshqa turdagi tekshiruvlar natijasida davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimida manfaatlar to'qnashuvi aniqlanganda.

Manfaatlar to'qnashuvini hisobga olish reestriga ushbu moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilgan asoslardan tashqari quyidagi ma'lumotlar kiritiladi:

➤ mavjud yoki ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvlarini tartibga solish yuzasidan ko'rilgan choralar to'g'risidagi ma'lumotlar;

➤ manfaatlar to'qnashuvini oshkor etish chog'ida bila turib yolg'on yoki noto'g'ri axborotni taqdim etgan yoxud bunday axborotni yashirgan davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimiga nisbatan ko'rilgan ta'sir choralari to'g'risidagi ma'lumotlar.

Maxsus bo'linma, ya'ni kadrlar bilan ishlash bo'linmalari va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari tomonidan aniqlangan

manfaatlar to'qnashuvi hollarining hisobi o'z vaqtida va to'liq yuritilishi uchun javobgardir.

Davlat organlarining yoki boshqa tashkilotlarning odob-axloq komissiyasi mavjud yoki ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvlari to'g'risida har yarim yilda xulosa qabul qiladi hamda ularni tartibga solish bo'yicha ko'rilgan choralarning yetarliligini (to'g'riligini) ko'rib chiqadi.

Davlat organlarining yoki boshqa tashkilotlarning odob-axloq komissiyasi aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi hollarini maxsus bo'linma bilan birgalikda tahlil qiladi va davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimlari o'rtasida tushuntirish ishlarini olib boradi.

Manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilgan holda qabul qilingan qarorlar yoki tuzilgan bitimlar sud tartibida haqiqiy emas deb topiladi.

Manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilgan holda qabul qilingan qaror yoki tuzilgan bitim haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, ushbu qaror qabul qilinganligi yoki bitim tuzilganligi natijasida olingan foyda bitim bo'yicha olingan hamma narsani

qaytarib berish to'g'risida talab qo'yilmagan holda, sud tartibida davlat daromadiga o'tkaziladi. Bunda haqiqiy emas deb topilgan bunday bitimning ijrosi bilan bog'liq xarajatlarning o'rni manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ygan shaxsning hisobidan qoplanadi.

Manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilgan holda qabul qilingan qaror yoki tuzilgan bitim haqiqiy emas deb topilganligi natijasida jismoniy yoki yuridik shaxslarga, shu jumladan davlat organlariga yoki boshqa tashkilotlarga yetkazilgan zarar davlat organining yoki boshqa tashkilotning aybdor xodimlaridan regress tartibida undirib olinishi mumkin.

«193⁴-modda. Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi qonunchilik talablarini bajarmaslik

Davlat organining yoki boshqa tashkilotning mansabdor shaxsi yoki xodimi tomonidan manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi haqida xabar bermaslik, —

bazaviy hisoblash miqdorining **uch baravaridan besh baravarigacha** miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takroran sodir etilgan bo'lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining **besh baravaridan o'n baravarigacha** miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Davlat organining yoki boshqa tashkilotning mansabdor shaxsiga ma'lum bo'lib qolgan, manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan mavjud yoki ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish yuzasidan choralari ko'rmaslik, —

bazaviy hisoblash miqdorining **besh baravaridan o'n baravarigacha** miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takroran sodir etilgan bo'lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining **o'n baravaridan o'n besh baravarigacha** miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning birinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar davlat xaridlari sohasida sodir etilgan bo'lsa, —

mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining **yigirma baravaridan o'ttiz baravarigacha** miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi

Huquqiy oqibatlari fuqarolik tartibda aloqador shaxslarga va aybdor shaxslarga nisbatan quyidagi ko'rinishda ta'sir choralari ko'riladi:

1. Manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilgan holda tuzilgan bitim haqiqiy emas deb topiladi:

– ushbu bitimni tuzish natijasida olingan foyda bitim bo'yicha olingan hamma narsani qaytarib berish to'g'risida talab qo'yilmagan holda, sud tartibida davlat daromadiga o'tkaziladi;

– bitimni ijro etish bilan bog'liq xarajatlarning o'rni manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ygan shaxsning hisobidan qoplanadi.

2. Korrupsiyaga yo'l qo'yilgan holda tuzilgan bitim haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, bunday bitimni tuzish natijasida jismoniy va yuridik shaxslarga

yetkazilgan zararning o'rnini aybdor shaxslar tomonidan sud tartibida qoplanadi. O'z navbatida, korrupsiyaga, shu jumladan manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilgan holda tuzilgan bitim sud tartibida haqiqiy emas deb topiladi.

3. Mavzu: Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 03.01.2017 yildagi O‘RQ-419-son.

Reja

- 1). Korrupsiya tushunchasi, shakllari va sabablari.
- 2). Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlar.
- 3). Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishi.
- 4). Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish.
- 5). Ta’lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta’lim va tarbiya.
- 6). Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash va ularga chek qo‘yishga, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta’minlashga doir chora-tadbirlar.
- 7). Davlat organlari xodimlarining korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to‘g‘risida xabar qilish majburiyati.
- 8). Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida axborot berayotgan shaxslarni himoya qilish.

1. Etimologik jihatdan “korrupsiya” atamasi “buzish, pora evaziga og‘dirish” degan ma’noni anglatadigan lotincha “corruptio” so‘zidan kelib chiqqan.

Korrupsiya - “davlat funksiyalarini bajarish vakolatiga ega bo‘lgan (yoki ularga tenglashtirilgan) shaxslarning noqonuniy tarzda moddiy va boshqa boyliklar, imtiyozlarni olishda o‘z maqomi va u bilan bog‘liq imkoniyatlardan foydalanishi, shuningdek, bu boylik va imtiyozlarni jismoniy yoki yuridik shaxslar qonunga xilof ravishda egallashiga imkon berishi”, deb ta’rif berilgan.

Korrupsiya ijtimoiy hayotimizda juda xafli xisoblanib quyida uning salbiy oqibatlarini ko‘rib o‘tamiz.

- birinchidan: iqtisodiyot negizlariga bolta uradi va islohotlar jarayoniga to‘sqinlik qilib uning asl mohiyatiga putur etkazadi va bu bilan islohotlar g‘oyasini obro‘sizlantiradi;
 - ikkinchidan: jamiyatning ma’naviy asoslariga zarar keltiradi;
 - uchinchidan: o‘sayotgan avlodning ongini zaharlaydi;
 - to‘rtinchidan: xorijiy sarmoyadorlani cho‘chitib yuboradi va eng asosiysi, xalqaro hamjamiyatda bu davlat to‘g‘risida salbiy tasavvurni yuzaga keltiradi.
- Inson sivilizatsiyasi o‘shishi natijasida, jinoyatchilikning turlari ortib bogan va korrupsiya yuzaga kelgan.

Barcha davlatlardagi jinoiy harakatlarda asosan birinchi o‘rinda moddiy manfaat, yuqori lavozimni olish va lavozim orqasidan tekin boylik orttirish yotadi. Korrupsiya iqtisodiyotni tanazzulga etaklab, davlat boshqaruvini izdan chiqfaradi. Fuqarolarda davlat boshqaruviga nisbatan ishonchsizlikni uyg‘otib, halol yo‘l bilan maqsadga erishish kabi orzu- xavaslarini yo‘qqa chiqaradi. Korrupsiya va

poraxo‘rlik davlatni ichidan emiradi. SHu bois bu illatga er yuzida barcha davlatlar o‘z hududidagi xolat va sharoitdan kelib chiqib turli usullarda kurash olib boradilar.

“Korrupsiya”ning 4 sababi:

1. **Shaxsiy sabablar.** Korrupsiya “yomon” hodisa, u yaxshi ta’lim- tarbiya ko‘rmaslik va kam maosh oladigan amaldorlarning noqasligi oqibatida paydo bo‘ladi.

2. **Institutsional sabablar.** Bunda boshqaruvning kuchsizligi asosiy omil sanaladi. Masalan, kadrlar tayyorlash, hisobga olish va nazorat qilishning samarasizligi, mansabdorlarni yollashning osonligi va ularni oson ishdan haydash, ularda uzoq vaqt mansabda turishga ishonchsizlik paydo bo‘lishi kabilar korrupsiyani rag‘batlantiruvchi omillardir.

3. **Tizimiy sabablar.** Hukumat ba‘zan jamiyatning shunday talablariga duch keladigi, ularni bajarishning rasmiy tartiblari hali aniq ishlanmagan bo‘ladi yohud ular ko‘p miqdorda mablag‘ talab etadi va aksar holda uzoq muddatlarga cho‘ziladi. SHunday holatlarda korrupsiyaga to‘g‘ridan- to‘g‘ri va qisqa yo‘l ochiladi.

4. **Ko‘p tomonlama sabablar.** Ba‘zan rahbariyatining o‘ziga xos xulki tufayli davlat boshqaruvida hal qiluvchi rolini “shaxsiy” omillar bajaradi.

Jamiyatimizda korrupsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbuzarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo‘l qo‘ymaslik, jinoyatga jazo albatta muqarrar ekani to‘g‘risidagi qonun talablarini amalda ta‘minlash bo‘yicha qat‘iy choralar ko‘rish zarurligi ta‘kidlanmoqda.

Jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabat qaror toptirish o‘ta dolzarb masala bo‘lib, garchi uni bajarish doirasida mas‘ul idoralar belgilangan bo‘lsa-da, uning to‘laqonli ro‘yobga chiqishi uchun har bir fuqaro o‘zida mas‘uliyat his etsa, qo‘yilgan maqsad va muddaolar echimi paydo bo‘ladi. Har birimiz qaerda, qanday muammoga duch kelsak, uning hal etilishida mas‘ul shaxslarning mas‘uliyatsizligi yoki ta‘magirligiga guvoh bo‘lganda sharoitga bo‘ysunish, indamay ketaverish yoxud chidash o‘rniga bong urishimiz kerak. Mas‘uliyatsizlikka, adolatsizlikka nisbatan murosasizlikni o‘zimizdan boshlashimiz darkor. SHunda mudrayotgan mansabdor uyg‘onadi, zimmasida qanday mas‘uliyat borligini his etadi.

2. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari. (7-modda)

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari quyidagilardan iborat:

- O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;
- O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;
- Davlat Xavfsizligi Xizmati;

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni qonunchilikka muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshiradi.

Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar:

-korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi;

-aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishda ishtirok etishi;

-korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikning ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi;

-korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritishi;

-korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi mumkin.

3. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar qonunchilikka muvofiq boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkilotlari ushbu moddada nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish maqsadida Milliy kengash va hududiy kengashlar faoliyatida, shuningdek davlat organlari huzuridagi ishchi guruhlar, komissiyalar va jamoat-maslahat organlari faoliyatida qonunchilikda belgilangan tartibda ishtirok etadi. (14-modda).

4. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish.

Davlat organlari va boshqa tashkilotlar korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'radi, shu jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir tushuntirish ishlarini amalga oshirish, huquqiy tarbiya va ta'limni, ilmiy-amaliy tadbirlarni tashkil etish, o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlarni ishlab chiqish yo'l i bilan zarur chora-tadbirlar ko'radi. 16-modda.

5. Ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiya.

Ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiya belgilangan davlat ta'lim standartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Davlat ta'limni boshqarish organlari va ta'lim muassasalari korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini inobatga olgan holda ta'lim muassasalarida huquqiy ta'lim va tarbiyaga, mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning sifatini oshirishga, ta'lim dasturlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi. (18-modda.)

6. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash va ularga chek qo'yishga, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlashga doir chora-tadbirlar

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash va ularga chek qo'yishga, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlashga doir chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi

davlat organlarining korrupsiyaning holatini va tendensiyalarini tizimli tahlil qilishga asoslangan samarali ishini tashkil etish, ularning faoliyatida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘ymaslik;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashning zamonaviy shakllari va usullaridan foydalanish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning texnik ta‘minoti darajasini oshirish, ularning ishiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

- sudlarning mustaqilligi va erkinligini, ular faoliyatining ochiqligini ta‘minlash;

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari o‘rtasida muvofiqlashtirishni va hamkorlikni ta‘minlash;

- jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlariga doir murojaatlari to‘liq, xolisona va o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishini ta‘minlash;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida axborot bergan shaxslarning himoya qilinishini ta‘minlash;

- korrupsiyaga qarshi kurashning samarali jinoyat-huquqiy va jinoyat-protsessual mexanizmlarini yaratish. (25-modda)

7. Davlat organlari xodimlarining korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to‘g‘risida xabar qilish majburiyati.

Davlat organlarining xodimlari ularni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etishga ko‘ndirish maqsadida biror-bir shaxs o‘zlariga murojaat etganligiga doir barcha hollar to‘g‘risida, shuningdek davlat organlarining boshqa xodimlari tomonidan sodir etilgan shunga o‘xshash huquqbuzarliklarning o‘zlariga ma‘lum bo‘lib qolgan har qanday faktlari haqida o‘z rahbarini yoxud huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xabardor etishi shart.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan majburiyatning davlat organlarining xodimlari tomonidan bajarilmaganligi qonunchilikka muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi. (26-modda)

8. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi axborotni xabar qiluvchi shaxslarni va ularning yaqin qarindoshlarini himoya qilish.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi axborotni xabar qiluvchi shaxslar va ularning yaqin qarindoshlari davlat himoyasida bo‘ladi. (28-modda)

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida xabar qiluvchi shaxslar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xizmat sirini tashkil etadi hamda faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va shaxsning o‘zining, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi organ rahbarining yozma ruxsati asosida oshkor etiladi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida xabar qiluvchi shaxslarning hamda ularning yaqin qarindoshlarining hayotiga va sog‘lig‘iga haqiqiy tahdidni, ularga nisbatan zo‘rluk ishlatilganligini, ularning mol-mulki yo‘q qilinganligini yoki shikastlantirilganligini tasdiqlovchi yetarli asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda, korrupsiyaga qarshi kurashishni amalga oshiruvchi organlar “Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ularni himoya qilish

bo'yicha zarur choralar ko'rish shart.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi axborotni xabar qiluvchi shaxslarning va ularning yaqin qarindoshlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida xabar qilganligi sababli tajovuz qilishga, shuningdek ish beruvchi tomonidan ularning mehnatga oid huquqlari buzilishiga yo'l qo'yilmaydi hamda bu qonunga ko'ra javobgarlikka sabab bo'ladi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida xabar qiluvchi shaxslarni rag'batlantirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Ushbu moddaning qoidalari korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida bila turib yolg'on axborotni xabar qilgan shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi, ular bunday huquqbuzarlik uchun qonunga muvofiq javobgar bo'ladi.

4. Mavzu: O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini yanada samarali tashkil etish to‘g‘risidagi Nizom (2024 yil 8-oktyanrdagi 369-sonli bo‘yrug‘i)

Reja:

- 1). Umumiy qoidalar.
- 2).Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari.
- 3).Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining elementlari.
- 4).Axborot taqdim etish, aloqa o‘rnatish va maslahat berish tizimini yo‘l ga qo‘yish bo‘yicha.
- 5).Korrupsion harakatlar to‘g‘risida xabar berish.

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda xalqaro tashqilotlarning tavsiyalari, korrupsiyaga qarshi kurash sohasida yetakchi jahon amaliyotlari, shu jumladan ISO 37001:2016 Korrupsiyaga qarshi kurashning boshqaruv tizimlari – foydalanish bo‘yicha talablar va tavsiyalarni inobatga olgan holda ishlab chiqilgan.

Vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va unga bo‘ysunuvchi oliy ta’lim muassasalari (keyingi o‘rinlarda-bo‘ysunuvdagi markazlar va muassasalar) mazkur Nizom talablaridan kelib chiqqan holda, mavjud resurs va tajribalar, xos va qoldiq korrupsion xavf-xatar asosida o‘zlarining korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini ishlab chiqishlari va joriy etishlari lozim.

Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga toqatsiz munosabatni shakllantirish;

Vazirlik tizimi faoliyatining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish;

Vazirlik tizimi xodimlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarlari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki hujjatlar talablarini to‘liq va har tomonlama bilishlari hamda ularga rioya etishlari;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘ymaslik va o‘z vaqtida aniqlash, ularni keltirib chiqaruvchi sabab va sharoitlarni, oqibatlarni bartaraf etish, egallab turgan lavozimidan qat’iy nazar, vazirlik tizimining barcha xodimlari tomonidan korrupsion harakatlar sodir etganlik uchun javobgarlik muqarrarligi prinsipiga amal qilishini ta’minlash;

vazirlik tizimida korrupsiyaga barham berish.

Ushbu Nizom talablari egallab turgan lavozimi va bajaradigan vazifalaridan qat’i nazar, Vazirlik tizimi bilan munosabatlarga kirishgan barcha xodimlariga nisbatan qo‘llaniladi.

Vazirlik tizimiga ishga kiruvchi har qanday shaxs mazkur Nizom bilan imzo qo‘ygan holda tanishishi va unga rioya qilishi shart.

Ushbu Nizom maqsadlaridan kelib chiqib, quyidagi asosiy tushunchalar va atamalardan foydalaniladi:

Vazirlik tizimi - O‘zbekiston Respublikasi Oliy talim, fan va innovatsiyalar vazirligining tuzilmasi, yuridik shaxs sifatida tashkil etilgan muassasalar (vazirlik, uning hududiy boshqarmalari, bo‘ysunuvchi markazlar va muassasalar)ni o‘z ichiga oladi.

Vazirlik - O‘zbekiston Respublikasi Oliy talim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Vazir - O‘zbekiston Respublikasi Oliy talim, fan va innovatsiyalar vaziri.

Vazirlik tizimi xodimi / xodim - O‘zbekiston Respublikasi Oliy talim, fan va innovatsiyalar vazirligi, uning hududiy boshqarmalari, markazlari va bo‘ysunuvchi oliy ta‘lim muassasalari bilan mehnat munosabatlariga kirgan jismoniy shaxs.

Davlat mansabdor shaxsi:

- O‘zbekiston Respublikasi yoki xorijiy davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi yoki sud hokimiyatida tayinlangan yoki saylanadigan lavozimni egallagan har qanday shaxs.
- O‘zbekiston Respublikasi yoki xorijiy davlat, shu jumladan davlat organi, korxonasi yoki muassasa uchun davlat funksiyalarini bajaruvchi shaxs.
- Har qanday mansabdor shaxs yoki xalqaro tashqilot vaqili.
- Siyosiy arboblardan, siyosiy partiyalarning mansabdor shaxslari, shu jumladan siyosiy lavozimlarga nomzodlar.

Davlat organlari, korxonalari va muassasalari - davlat hokimiyati organlari, fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organlari (shu jumladan vazirliklar, xizmatlar, agentliklar va idoralar) va ularning tarkibiy bo‘linmalari, shuningdek davlat tomonidan bevosita yoki bilvosita boshqariladigan barcha yuridik shaxslar.

Davlat funksiyalari - davlat tomonidan tayinlanadigan va davlat manfaatlari yo‘lida amalga oshiriladigan har qanday faoliyat.

Komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi - O‘zbekiston Respublikasi Oliy talim, fan va innovatsiyalar ligining tarkibiy bo‘linmasi, vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas‘ul bo‘linma.

Kontragent - vazirlik, uning hududiy boshqarmalari, bo‘ysunuvchi markazlari yoki muassasalari bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishgan (abituriyentlar, talabalar va o‘quvchilarning mehnat munosabatlarini istisno qilgan holda) har qanday jismoniy yoki yuridik shaxs.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha koordinator yoki mas‘ul - vazirlikning hududiy boshqarmalari, uning bo‘ysunuvidagi markazlar va muassasalarda korrupsiyaga qarshi kurashish doirasida chora-tadbirlarni samarali va o‘z vaqtida amalga oshirilishini muvofiqlashtirish hamda nazorat qilish vazifalari yuklatilgan vazirlikning hududiy boshqarmalari, uning bo‘ysunuvidagi markazlar va muassasalarning xodimi.

Korrupsiya - shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish.

Korrupsiyaviy harakatlar - xodim tomonidan pora beruvchining manfaatlarini ko‘zlab harakat yoki harakatsizligi uchun bevosita yoki bilvosita,

shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali porani ya'ni pul, qimmatbaho qog'ozlar, boshqa mol-mulki, mulkiy tUSDagi xizmatlarni, boshqa mulkiy huquqlarni olish, talab qilish, taklif qilish, vada qilish va berish, shuningdek, pora berish va (yoki) olishda vositachilik qilish, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlarni olish, xodim tomonidan pora olish yoki huquqqa xilof boshqa maqsadlarda o'z xizmat mavqeidan noqonuniy foydalanish.

Korrupsion xavf-xatar - vazirlik tizimi xodimlari yoki uchinchi shaxslar tomonidan vazirlik tizimi nomidan va (yoki) ularning manfaatlarini ko'zlab korrupsiyaviy hatti-harakatlarni sodir etish xavfi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik - korrupsiya belgilariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi - vazirlik tizimi xodimlari tomonidan faoliyatni yuritishda yuqori darajadagi professionalizm va odob-axloq qoidalariga amal qilishini ta'minlash, korrupsion hatti-harakatlarni bartaraf etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar.

Kronizm – do'stlarga yoki ishonchli shaxslarga noqonuniy imtiyozlarni taqdim etish maqsadida xizmat vazifasidan foydalanish va (yoki) ta'sir o'tkazish.

Manfaatlar to'qnashuvi - shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik, vazirlik tizimi xodimining mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan vazirlik tizimining huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat.

Mahalliychilik - shaxsni mazkur lavozimga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiqligini inobatga olmagan holda, faqatgina kelib chiqishi hamda mazkur shaxsning hukumat vakolatlariga ega bo'lgan idoralarda yaqin qarindoshining xizmat mavqeyi sabablari bo'yicha shaxsni ishga qabul qilish, ishini o'zgartirish, lavozimga tayinlash (taniqli yoki mashhur shaxslar hamda ularni jamoatchilik tomonidan tan olinishi).

Nepotizm – o'zining yaqin qarindoshlari g'ayriqonuniy imtiyozlar berish maqsadida hokimiyatdan foydalanish va (yoki) ta'sir o'tkazish, shuningdek yaqin qarindoshlari va (yoki) do'stlariga asossiz mukofotlar hisoblash, vazirlik manfaatlari zarariga yaqin qarindoshlari va do'stlarini ishga qabul qilish va lavozimga tayinlashlar.

Rasmiyatchiliklarni yengillashtirish uchun to'lovlar - tegishli qonunchilik va me'yoriy hujjatlarda ko'zda tutilmagan, o'rnatilgan tartib-qoidalarni yoki harakatlarni ijro etishning standart tartibini bajarishda yoki amalga oshirilishini tezlashtirish maqsadida qonunga xilof ravishda taqdim etilgan pul mablag'lari, mol-mulk, mulkiy huquqlar, xizmatlar va boshqa moddiy yoki nomoddiy daromadlar.

Xalqaro tashqilot - tashqiliy shakli va vakolatlaridan qat'iy nazar, davlatlar, xukumatlar yoki boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan tashqil etilgan har qanday halqaro tashkilot, shu jumladan, iktisodiy hamkorlik bo'yicha mintaqaviy tashqilotlar.

Xayriya qilish (xayriya yordami ko'rsatish) - vazirlik tizimi (xayriya oluvchilar)ga moddiy yoki nomoddiy qimmatliklarni, shu jumladan pul mablag'lari ko'rinishida, ular uchun ish yoki xizmatlar ko'rsatish hamda xayriya maqsadlarida

boshqa qo'llab-quvvatlashni amalga oshiruvchi jismoniy va yuridik shaxslar (xayriya qiluvchilar)ning qaytarib olinmaydigan va imtiyozli shartlarda ifodalanadigan ixtiyoriy manfaatsiz yordam (faoliyat).

Xizmat (biznes) mexmondo'stligi belgilari - vazirlik tizimi xodimlarini o'zi tomonga og'dirishga qaratilgan hamkorlikni o'rnatish va (yoki) uni qo'llab-quvvatlash maqsadida, vazirlik tizimi xodimlarining manfaatlari yo'l ida uchinchi shaxslarning harajatlari, shu jumladan uchinchi shaxslarning ovqatlanishni tashqil etish, xizmat tushligi va kechki ovqatni uyushtirish, transport harajatlari, yashash harajatlari, dam olishga, eksko'rsion dastur tashqil etishga qaratilgan harajatlar va h.k..

Xodimning shaxsiy manfaati - vazirlik tizimi xodimi tomonidan uning mansab yoki xizmat majburiyatlarini to'liq bajarishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan, xizmat vazifalarini bajarishi jarayonida uning yaqin qarindoshi yoki xodimga aloqador shaxslarning pul mablag'lari, moddiy va (yoki) nomoddiy qiymatliklar, boshqa mol-mulk, daromad, foyda va afzalliklar shaklida manfaatdorligi (shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlari).

Haqiqiy manfaatlar to'qnashuvi - vazirlik tizimi xodimining shaxsiy manfaati bevosita yoki bilvosita vazirlik tizimining manfaatlariga zid kelishi oqibatida xodim tomonidan xizmat vazifalarini to'g'ri bajarilishiga ta'sir qiluvchi vaziyat.

Homiylik qilish (homiylik yordami) - buning oqibatida vazirlik tizimi muassasasida homiy oldida o'zaro majburiyat yuzaga kelishiga olib keluvchi yuridik va jismoniy shaxslar (homiylar)ning qaytarib berish sharti bilan vazirlik tizimi (homiylik qilinuvchi tashqilot)ga mol-mulk, shu jumladan pul mablag'lari shaklida yordam ko'rsatishi hamda ular uchun ishlarni bajarishi, xizmatlar ko'rsatishi yoxud homiylik maqsadlarida boshacha qo'llab-quvvatlashni amalga oshirishi.

Urug'-aymoqchilik - xodimning umumiy avlodga ega bo'lgan muayyan karindoshga mansubligi asosida uchinchi shaxslarga nisbatan subyektiv, iltifotli va noholis munosabatda bo'lish shaklidagi shaxsiy manfaatining namoyon etilishi.

Shaxsiy himoya ostiga olish - vazirlik tizimi xodimini lavozimi bo'yicha yuqori turuvchi xodim tomonidan unga qulay mehnat sharoitlarini yaratib berish shaklida qo'llab turish va himoya ostiga olish;

Favoritizm - vazirlik tizimi xodimi tomonidan bir shaxs yoki bir guruh shaxslar manfaatlarini boshqa shaxs va (yoki) shaxslar guruhi manfaatlaridan ustun qo'yish, shu jumladan, vazirlik tizimida kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, lavozimi bo'yicha ko'tarish, mukofotlarni hisoblash va davlat mukofotlariga tavsiya qilish, mehnat ta'tillari berish yoki sanatoriylar va xorij safarlariga yuborish, murojaatlarni ko'rib chiqish navbatini, shuningdek ish vakti va navbatchilik grafiklarini belgilash shular jumlasidandir.

Yaqin qarindoshlar - qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo'lgan shaxslar, ya'ni ota-ona, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, shuningdek er-xotinning ota-onasi, tu'ishgan va ugay aka-uka va opa-singillari.

2. Vazirlik tizimidagi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi quyidagi prinsiplar asosida ishlaydi:

Qonuniylik - vazirlik tizimidagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari, davlat organlari va ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha jahonda tan olingan amaliyotni hisobga olgan holda hamda vazirlik tizimining belgilangan ichki hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Korrupsiyaga toqatsizlik - vazirlik tizimi o'z faoliyatining barcha sohalarida korrupsiyaning har qanday shakllari va ko'rinishlariga murosasiz munosabatda bo'ladi. Vazirlik tizimi xodimlariga korrupsiyaviy xavf-xatar kelib chiqishi mumkin bo'lgan faoliyatda bevosita yoki bilvosita ishtirok etish taqiqlanadi.

Ochiqlik va shaffoflik - vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida vazirlik tizimi xodimlari va kontragentlarini, keng jamoatchilikni xabardor qilish.

Tizimlilik — vazirlik tizimi korrupsiyaviy hatti-harakatlar sodir etilishiga va korrupsiyaviy xavf-xatarlarga ko'maklashuvchi sabab va shart- sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan preventiv chora-tadbirlarni amalga oshirishga ustuvor ahamiyat beradi. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va tartib-taomillar aniqlangan xavf-xatarlar darajasiga muvofiq keladi hamda vazirlik tizimining barcha funksiyalari va yo'nalishlariga integrasiya qilingan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimiga birlashtirilgan.

Korrupsiya bilan bog'lik huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning muqarrarligi — korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklarni sodir etgan vazirlik tizimi xodimlari o'zining maqomi va egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar vazirlikning ichki hujjatlari va amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

Texnika taraqqiyotining yutuqlaridan foydalanish - vazirlik korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yaratishda ilm-fan taraqqiyotining so'nggi yutuqlaridan, shu jumladan, integrasiyalashtirilgan axborot tizimlaridan foydalanishga intiladi.

To'g'ridan-to'g'ri rahbariga murojaat qilish - vazirlik tizimining har bir xodimi korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilganligi to'g'risida ishonchli va asosli ma'lumotlar mavjud bo'lganda belgilangan choralarni ko'rish uchun to'sqinliksiz o'zi faoliyat yuritayotgan idora rahbari, vazirlikning Komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limiga va (yoki) vazirga murojaat qilishi mumkin.

Fuqarolik jamiyati vakillari bilan o'zaro hamkorlik - vazirlik tizimi o'ziga yuklatilgan funksiyalarni bajarishda vazirlik tasarrufidagi tashkilot va muassasalari faoliyatini xalollik, holislik va mustaqillik asosida mustaqil nazorat qilish maqsadida fuqarolik jamiyati vakillarini jalp etadilar.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini doimiy ravishda takomillashtirish - vazirlik tizimi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini monitoring va nazorat qilish hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni amalga oshirish natijalariga ko'ra, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorligini to'xtovsiz ravishda oshirish choralari ko'radi.

Korrupsiyaning har qanday ko'rinishlariga nisbatan toqatsizlik prinsipiga

rioya qilgan holda, butun vazirlik tizimi korrupsiyaga qarshi kurashishda yagona yondashuvni shakllantirishga va korrupsiyaga qarshi kurashishning yaxlit tizimini joriy etishga intiladi.

Vazirlik, uning hududiy boshqarmalari va bo'ysunuvchi markazlar va muassasalarning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi quyidagilar (mazkur Nizom, O'zbekiston Respublikasi Oliy talim, fan va innovatsiyalar ligi tizimi xodimlarining odob-axlok koidalari, O'zbekiston Respublikasi Oliy talim, fan va innovatsiyalar ligi tizimidagi manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi Nizom)da o'z aksini topgan.

Vazirlik tizimining tarkibiy bo'linmalari rahbarlari o'z xodimlari, fuqorolar (yuridik shaxslar) bilan munosabatlarda halollik, adolatlilik va insoflilik kabi xulq-atvor namunasini ko'rsatish bilan birga, o'zlarida har qanday korrupsion harakatlarga toqatsizlik ko'rsatish munosabatini shakllantirishi lozim.

Vazirlik tizimi tarkibiy bo'linmalari boshliqlari va rahbarlari korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish va uni amalga oshirishda yetakchilik(liderlik) qobiliyatini quyidagilarda namoyon etadilar:

- vazirlik tizimi faoliyatining xavf-xatar funktsiya va yo'nalishlariga samarali antikorrupsion tadbirlar va jarayonlarni joriy etish, shu jumladan antikorrupsion dasturlar (yo'l xaritalari)ni tasdiqlash va ularning bajarilishi ustidan nazorat o'rnatish;

- korrupsiya masalalari bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini har tomonlama puxta va adolatli ko'rib chiqilishini ta'minlash.

Vazirlik tizimi o'z faoliyat yo'nalishlariga mos bo'lgan funksiyalardan kelib chiqqan holda, jamoatchilik, kontragentlar va boshqa shaxslar bilan alokalarda korrupsion xavf-xatarlarni aniqlash va baholashni amalga oshiradi, shuningdek boshqa tashki va ichki omillar ta'sirida O'zbekiston Respublikasi Oliy talim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida korrupsion xavf-xatarlarni baholashni amalga oshirish Uslubiyotiga hamda vazirlik tizimining boshqa ichki hujjatlariga muvofiq olib boriladi.

Korrupsion xavf-xatarlarni aniqlash va baholash doirasida vazirlik tizimi faoliyatining barcha yo'nalishlarida korrupsion xavf-xatarlarga ta'sirchan bo'lgan funksiyalarni aniqlash bo'yicha taxdilni amalga oshiradi, shuningdek aniqlangan xavf-xatarlarni kamaytirishga xizmat qiluvchi samarali antikorrupsion tadbirlar va nazorat turlari mavjudligi (mavjud emasligi) taxlil qilinadi.

Komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limining qo'llab-quvvatlashi va nazorati ostida korrupsion xavf-xatarlarni aniqlash va baholash jarayonida Vazirlik tizimida tegishli funksiyalari yuklatilgan mas'ul shaxslari va rahbarlari, hududiy boshqarmalar, bo'ysunuvchi markazlar va muassasalarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha koordinatorlar va mas'ul shaxslar qatnashadilar.

Korrupsion hatti-harakatlarning har qanday ko'rinishlariga toqatsizlik prinsipidan kelib chikib, vazirlik tizimida korrupsion xavf-xatarni kelib chikish extimoli va ta'sir qilish darajasidan kat'iy nazar, bu jarayonni boshqarish zarurligi muxim urin tutadi.

Korrupsion xavf-xatarlarni aniqlash va baholash bir yil davomida kamida bir

marotaba o'tkaziladi. Korrupsion xavf-xatarlarni baholash natijalari vazir va vazirlik tizimidagi tashqilotlar rahbarlari tomonidan ko'rib chiqiladi. Aniqlangan korrupsion xavf-xatarlarni kamaytirishga karatilgan antikorrupsion chora-tadbirlar vazirlik tizimining korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlari (yo'l haritalari)da aks ettiriladi.

3. Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimini shakllantirish uchun alohida mas'ul tarkibiy bo'linma – vazirlikning Komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi (keyingi urinlarda Komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi) tashkil etildi.

Komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi bevosita vazirga bo'ysunadi va o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy talim, fan va innovatsiyalar vazirligining Komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi to'g'risidagi Nizomga muvofiq amalga oshiradi.

Vazirlik barcha tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha vazifa va funksiyalarni amalga oshirishda vazir Komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limiga yetarli darajada mustaqillik va zaruriy resurslarga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi o'z faoliyatini samarali amalga oshirish uchun zaruriy bilim va kompetensiyalarga ega bo'lgan xodimlarga ega bo'lishi kerak.

Komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi xodimlari har yili korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha uqitish ko'rsalarida malaka oshirishlari hamda korrupsiyaga qarshi kurashish va antikorrupsion tizimni shakllantirish masalalari bo'yicha tadbirlarda ishtirok etishlari talab etiladi.

Komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi vazirlik markaziy apparatida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga mas'ul hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni o'z vaqtida va samarali amalga oshirilishini muvofiqlashtirish va nazorat qilish, shuningdek

Komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi bilan hamkorlik qilish maqsadida vazirlikning hududiy boshqarmalarida, unga bo'ysunuvchi markazlarda va muassasalarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha koordinator yoki mas'ul shaxs tayinlanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha koordinator yoki mas'ul shaxs o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Oliy talim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha koordinator to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshiradi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha koordinator yoki mas'ul shaxs lavozimi korrupsiya xavfining yukori darajasi bilan ifodalanadigan funksiyalarni bajarmaydigan xodimga yuklatilishi lozim.

Vazirlik markaziy apparatining Tashkiliy-kadrlar boshqarmasi, shuningdek, vazirlik tizimidagi tashkilot va muassasalarning kadrlar bo'limi vazirlik tizimida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha Nizomga va vazirlik tizimining boshqa ichki hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq tartibga solinadigan xodimlarning yaqin qarindoshlari va ularning o'zaro

aloqador shaxslari to'g'risida tizimli ravishda va belgilangan muddatlarda ma'lumot tuplash, taxdil qilish va yangilash uchun javobgardirlar.

Qushimcha tarzda vazirlik tizimidagi barcha muassasalarda quyidagi funksiyalarni amalga oshiruvchi alohida Odob-axloq bo'yicha komissiya to'z qilishi lozim:

- odob-axloq; qoidalariga rioya etish masalalarini ko'rib chikish;
- vazirlik tizimidagi tegishli muassasa xodimining manfaatlar to'qnashuvini (bu xaqdagi ma'lumotlar kadrlar bo'limidan, xodimning o'zidan, boshqa kanallar orqali olingan) ko'rib chiqish va uni bartaraf etish;
- aniqdangan manfaatlar to'qnashuvini bartaraf qilish yuzasidan qabul qilingan qarorlarning yetarliligi yoki yetarli emasligini ko'rib chiqish.

Odob-axloq bo'yicha komissiya o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Oliy talim, fan va innovatsiyalar ligi tizimida odob-axloq, bo'yicha komissiya to'g'risidagi Nizomga muvofiq amalga oshiradi.

4.Vazirlik, uning tizimidagi tashkilot va muassasalar o'zlarining rasmiy veb-saytlarida korrupsion xavf-xatarlarni kamaytirish va bundan aholining xabardorligini oshirish maqsadida mazkur Nizomni va ular tomonidan amalga oshirilayotgan antikorrupsion tadbirlar to'g'risidagi asosiy ma'lumotlarni joylashtirib boradilar.

Vazirlik tizimi O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish soxasidagi qonunchilik talablarini va vazirlik tizimi xodimlari (shuningdek, boshkd manfaatdor shaxslar) uchun qabul qilingan antikorrupsion talablar to'g'risidagi axborotlarni yetkazish va tushuntirish ishlarini olib borish bo'yicha barcha imkoniyatlarni ishga solish yo'lida quyidagi tadbirlarni amalga oshiradi:

- vazirlik tizimi rahbariyati tomonidan xodimlarga vazirlik tizimida qabul qilinayotgan antikorrupsion normalar va talablarga rioya etish muximligi to'g'risidagi xabarlarni elektron pochta va boshqa kommunikasiya tizimlari orqali doimiy tarzda yetkazib berish;

vazirlik tizimi xodimlariga doimiy tarzda va tizimli ravishda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ukitishni tashqil qilish. Ukitish O'zbekiston Respublikasi Oliy talim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha har yillik ukitish rejasiga asosan bir yilda bir marotabadan kam bo'lmasligi lozim. Yangi ishga qabul qilingan xodimlar mazkur Nizom va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha boshqa ichki hujjatlar bilan majburiy tanishish bilan birga antikorrupsion uqitishda qatnashishlari lozim. Bundan tashkari, vazirlik tizimida yuqori darajada korrupsion xavf-xatari bo'lgan lavozimlar kushimcha tarzda antikorrupsion uqitishlar tashkil etiladi. Uqitish (treninglar) o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar o'rnatilgan tartibda Komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limida va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha koordinator (mas'ul) shaxslarda saqlanadi;

- xodimlar va fukarolar o'rtasida amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi kurashish choralari to'g'risidagi xabardorligini oshirishga hamda ularda korrupsion xdti-xdrakatlarga nisbatan toqatsiz munosabatni shakllantirishga karatilgan tematik audio va videoroliklar xdma boshqa axborot materiallaridan foydalangan holda antikorrupsion kampaniyalarni o'tkazish;

- vazirlik tizimi xodimlarining korrupsion hatti-harakatlarni sodir etilishi, korrupsion xavf-xatarlar va shu kabi ma'lumotlar (shubx,alar) to'g'risida xabar berish imkonini beruvchi alokd kanallarini ishga tushirish;
- O'zbekistan Respublikasi qonunchiligi talablari yoki vazirlik tizimidagi boshqa antikorrupsion talablar va tadbirlar xamda mazkur Nizom talablari bilan boglik xdr qanday masalalarda vazirlik tizimi xodimlariga maslaxatlar berish. Xodimlar maslaxat olish uchun Komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi va (yoki) korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tegishli koordinator (mas'ul) shaxslarga murojaat qilishlari mumkin;
- vazirlik tizimi xodimlari mehnat shartnomalariga antikorrupsion talablarni kiritilishi;
- vazirlik tizimining kontragentlari (hamkorlari, xayr-exson qiluvchilari, xomiylari) bilan to'zilgan shartnomalarga antikorrupsion shartlarni kiritish;
- antikorrupsion xulq-atvorni targib qilinishi Komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tegishli koordinator (mas'ul shaxs)lar hamkorligida ishlab chiqilgan rejalarga muvofiq amalga oshiriladi.

Monitoring, nazorat va uslubiot masalalari bo'yicha:

Komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi, shuningdek mas'ul bo'linmalar (shaxslar) o'z darajalarida vazirlik tizimidagi antikorrupsion tadbirlarni mutanosib tarzda, yetarli darajada olib borilayotganligini, uning samaradorligini baholab, doimiy ravishda nazorat va monitoring olib boradilar. O'tkazilgan monitoring va nazorat natijalariga ko'ra, vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishni takomillashtirish bo'yicha tegishli tadbirlar qabul qilinadi.

Vazirlik, uning tizimidagi tashqilot va muassasalar korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini amal qilishi va mavjud holatini monitoring va nazorat qilish uchun mustaqil tashqilotlar(muassasalar)ni jalb qilish xukukiga ega.

Vazirlik, uning tizimidagi tashqilot va muassasalarning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimida quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha monitoring o'tkazilishi lozim:

- vazirlik tizimi faoliyatida kullaniladigan korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha O'zbekistan Respublikasi xukumat idoralarining tavsiyalari va qonunchilik monitoringi;
- xalkaro va xorijiy tashqilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimii yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha tavsiyalari monitoringi;
- ommaviy axborot vositalarini, ularda vazirlik tizimi xodimlarini korrupsion hatti-xdrakatlarga jalb qilinganligi to'g'risida ma'lumotlar, xuddi shunday ma'lumotlarni vazirlik tizimining kontragentlari (hamkorlari)da mavjudligi bo'yicha monitoring o'tkazish;
- vazirlik tizimi xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashishining asosiy prinsiplari va talablari bo'yicha xabardorligini tekshirish;
- vazirlik tizimidagi Yo'l xaritasiniig bandlarining bajarilishi to'liqligi va samaradorligini monitoring qilish.

Vazirlik tizimidagi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorligi (korrupsion xavf-xatarlarni mavjud emasligi) bo'yicha nazorat quyidagicha amalga

oshiriladi:

- antikorrupsion tizimni, shu jumladan vazirlik tizimida urnatilgan talablar va choralarga rioya etilishi yuzasidan nazoratni ichki audita;
- ISO 37001:2016 standartlariga muvofiqlik bo'yicha antikorrupsion tizimning ichki auditi.

Monitoring va nazorat O'zbekiston Respublikasi Oliy talim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimidagi korrupsiyaga qarshi kurashish prinsiplari va talablariga rioya etilishini monitoring qilish va nazorat qilish Uslubiyotiga hamda vazirlik tizimining boshqa ichki hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini monitoring qilish va nazorat qilish bo'yicha chora-tadbirlarning yakunlari va natijalari vazirga, vazirlik Hay'atiga hamda bo'ysunuvchi markazlar va muassasalar rahbarlariga takdim qilinadigan choraklik hisobotlarda aks etadi. Hisobotlarni shakllantirish va takdim etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Oliy talim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati to'g'risidagi hisobotlarni shakllantirish va takdim etish Reglamentiga muvofiq rasmiylashtiriladi.

Huquqbuzarlikka qarshi kurash va aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish bo'yicha: Mazkur Nizom, vazirlik tizimida antikorrupsion talablar va tartib-koidalarga rioya qilish har bir xodimning o'z xizmat vazifalarini bajarishi doirasida amalga oshirilishi lozim.

Xodimlar belgilangan talablar va tartiblarni buzganlik uchun shaxsiy javobgar hisoblanadilar.

Urnatilgan antikorrupsion talablarini buzgan vazirlik tizimi xodimlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda va asoslarda intizomiy, ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Xodimlar o'z rahbarini yoxud xukukni muxofaza qilish organlarini ularni huquqbuzarliklar sodir etishga og'dirish maqsadida biror-bir shaxslarning qilgan murojaatlarining barcha holatlari to'g'risida, shuningdek bonda davlat xizmatchilari tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklarning o'zlariga ma'lum bo'lgai har qanday holatlari xaqida xabardor qilishi shart.

Korrupsiyaning har qanday ko'rinishlariga nisbatan toqatsizlik prinsipini inobatga olgan holda, vazirlik tizimi xodimlari tomonidan vazirlik tizimida korrupsion harakatlar sodir etilgan har bir asoslangan shubxali holat yuzasidan ichki xizmat tekshiruvlari O'zbekiston Respublikasi Oliy talim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimi xodimlarining odob-axlok qoidalari, Korrupsion harakatlar va qonunbuzarliklar yuzasidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha Reglamentda nazarda tutilgan tartibda, vazirlik tizimining boshqa ichki hujjatlari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq o'tkaziladi.

Korrupsion harakatlar aniqlangan takdirda, Komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha koordinator (mas'ul)lar bilan hamkorlikda ularni amalga oshirish sabablari va imkoniyatlarini taxlil qiladi va doimiy ravishda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirib boradi.

Ichki tekshiruvlar natijalari to'g'risida vazirga, vazirlik Hay'atiga va vazirlikning tegishli hududiy boshqarmalar, bo'ysunuvchi markazlar va muassasalar rahbarlariga

ma'lumot beriladi.

Vazirlik, uning tizimidagi tashqilot va muassasalar korrupsiyaga oid xukukbuzarliklarni aniqlash va tergov o'tkazish bo'yicha huquqni muxofaza qiluvchi organlar va boshqa idoralar bilan hamkorlik qiladi.

Korrupsion xavf-xatarlarni kamaytiruvchi chora-tadbirlar bo'yicha:

Vazirlik tizimi umumiy nazorat muxiti bilan birga, faoliyat (funksiya)ning xavf-xatar yo'nalishlaridagi (aniqlangan xatarlar darajasiga mos ravishda) antikorrupsion nazorat va tadbirlarni xam kamrab oluvchi korrupsiyaga qarshi kurashishning kompleks tizimini joriy qiladilar.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha joriy qilinayotgan nazorat va tadbirlar vazirlik tizimi xodimlari uchun aniq va tushunarli bo'lishi zarur, jamoatchilik uchun vazirlik tizimi faoliyatining shaffofligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu chora-tadbirlar va jarayonlar vazirlik tizimining korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha dasturi/yo'l haritasida aks ettiriladi, shuningdek mazkur Nizomda va vazirlik tizimining tegishli ichki hujjatlarida belgilanadi.

1. Vazirlik tizimi xodimlari va boshqa shaxslar korrupsiyaviy harakatlar sodir etilganligi yoki sodir etilishi mumkinligi fakti hamda boshqa xukukbuzarlik to'g'risida vazirlik tizimi aloqa kanallari orqali ochiq tarzda xabar berishlari mumkin.

Vazirlik, uning tizimidagi tashqilot va muassasalar o'z vakolatlari va mavjud imkoniyatlari doirasida xukukbuzarlik to'g'risida ishonchli ma'lumot bergan shaxsning maxfiyligini ta'minlaydi.

Vazirlik, uning hududiy boshqarmalari, bo'ysunuvchi markazlari va muassasalari o'z xodimlarining manfaatlarini ximoya qiladi hamda qasos olish hatti-harakatlari, shu jumladan ishdan bushatish, lavozimini pasaytirish, kamsitish, ta'qib qilish, shubxali xatgi-harakatlar yoki mazkur Nizomdagi antikorrupsion talablarni vazirlikning boshqa xodimi tomonidan buzilishi mumkinligi to'g'risida ishonchli xabar yetkazgan xodimlarga nisbatan ta'qiblarga yo'l quymasligini kafolatlaydi.

Korrupsiyaviy harakatlar to'g'risida xabarlarni quyidagi aloqa kanallari orqali yetkazish mumkin:

«1006» telefoni va vazirlik tizimi tomonidan o'rnatilgan boshqa telefonlar orqali;

"anticoredu" telegram kanali orqali;

Komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi elektron pochta orqali;

vazirlikning <https://www.edu.uz> rasmiy veb-saytida joylashtirilgan shakl orqali;

internet tarmog'idagi Prezident virtual qabulxonasi (<https://pm.s:ov.uzi>).

O'zbekiston Respublikasi HUKUMAT portali va Oliy talim, fan va innovatsiyalar vaziri virtual qabulxonasi orqali;

vazirlikning elektron pochta edu@exat.uz va hududiy boshqarmalar, bo'ysunuvchi markazlar va ta'lim muassasalarining elektron pochtalari orqali;

tasdiqlangan grafik asosida vazirlik tizimi xodimlari tomonidan o'tkaziladigan shaxsiy qabul orqali;

vazirlik tizimi muassasalarining devonxonasiga yuboriladigan yozma

murojaatlar orqali.

Vazirlik tizimining aloqa kanallariga kelib tushgan barcha xabarlar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy talim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida korrupsiyaviy harakatlar to‘g‘risida xabar berishga mo‘ljallangan aloqa kanallariga tushuvchi xabarlarni qabul qilish va qayta ishlash Reglamenta va vazirlik tizimining boshqa ichki hujjatlariga muvofiq vazirlik tizimining mas’ul bo‘linmasi (xodimi) tomonidan obyektiv va o‘z vaqtida ko‘rib chiqiladi,

Korrupsion harakatlarni sodir etilganligi fakta yoki shubha- gumonlarn to‘g‘risida yetarlicha axborot mavjud bo‘lganda, anonim tarzda yuborilgan xabarlar (vazirlik tizimining telegramm kanallari orqali) xam ko‘rib chiqish uchun qabul qilinadi.

Vazirlik tizimining xodimiga ataylab yolg'on ma'lumotlar takdim etilishi ushbu Nizomning buzilishi va odob-axloq normalariga qarshi harakat sifatida baholanadi va bu shaxs O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va vazirlik tizimining ichki hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin.

Vazirlik tizimi xodimlari tomonidan mavjud aloqa kanallari orqali vazirlik tizimidagi korrupsion faktlar to‘g‘risida ishonchli xabar berilganda, agar ushbu ma'lumot tasdiqlansa, O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuniga va vazirlik tizimining ichki hujjatlariga muvofiq rag‘batlantirilishi mumkin.

5.mavzu: Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti “komplayens nazorat” tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlari.

Reja

1. Korrupsiyaga qarshi “komplayens-nazorat” tizimi nima?
2. “Komplayens nazorat” tizimining xalqaro prinsiplari.
3. Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi nizom.
4. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining elementlari
5. Universitetning korrupsiyaga qarshi kurashish prinsiplari:
6. Universitet tarkibiy tuzilmalarida korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy elementlari.
7. Ish jaryonidagi sovg‘alar.
8. Korrupsiyaga qarshi kurashish va odob-axloq qoidalari.
9. Korrupsiyaga qarshi kurashish va odob-ahloq qoidalarini buzganlik uchun javogarlik.

1.Korrupsiyaga qarshi “Komplayens-nazorat” tizimi nima?

Ilg‘or xorijiy davlatlarning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi zamonaviy boshqaruv usullariga muvofiq, samarali faoliyat yuritishni ta‘minlovchi eng muhim profilaktik vositalardan biri tarkibida korrupsiyaga qarshi “komplayens nazorat” tizimini joriy etish hisoblanadi.

“Komplayens”, “komplayens nazorat” (compliance control) tushunchalari - muvofiqlik va aniq belgilangan qoida, standart hamda ko‘rsatmalarga muvofiq faoliyat yuritishni anglatadi.

Davlat organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlar, banklar va xususiy sektor faoliyatini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar, qonun va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etilishini ta‘minlovchi, korrupsiya havf-xatarlari va manfaatlar to‘qnashuvini o‘z vaqtida aniqlash hamda ularga chek qo‘yish, qonun buzilishi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berish kabi qator profilaktik choralarni o‘zida mujassam etgan samarali tizimdir.

2.“Komplayens nazorat” tizimining xalqaro prinsiplari:

- Shaxsiy namuna (TONE AT THE TOP) - rahbariyat tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish va bunda jamoaga shaxsan namuna bo‘lishi;
- Korrupsiyaga nisbatan murosasizlik - xodimlarda korrupsiyaga nisbatan “0 (nol)” darajadagi murosasizlik madaniyatini shakllantirish;
- Ochiqlik va shaffoflik - faoliyatda ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash;
- Xabar berish siyosati - qonun buzilishi, manfaatlar to‘qnashuvi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berish;
- Komplayens dasturi - korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini qamrab oluvchi jarayonlar;

- Komplayens hodim - korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali yuritish uchun javobgar shaxs;
- Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baxolash- foliyatni turli korrupsiyaviy xavf-xatarlardan himoya qilish va baholab borilishini monitoring qilish;
- Samaradorlik va malaka oshirish - xodimlarni korrupsiyaga qarshi madaniyati va bilimni muntazam oshirib borish maqsadida o‘qitish.
- Tizimli tahlil - korrupsiyaga qarshi “komplayens nazorat” xizmatining samarali faoliyat yuritib borishini muntazam ravishda baholab, monitoring qilish;
 - Kontragent - uchinchi tomon shaxslarning ishonchliligini baholash.

3.Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi nizom

Mazkur Nizomning asosiy maqsadi:

- Universitet xodimlarining huquqiy ongi va madaniyatini shu orqali jamiyatda korrupsiyaga toqatsiz munosabatni shakllantirish;
- Universitet xodimlari korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlari va ichki idoraviy hujjatlari talablarini to‘liq bilishlari hamda ularga rioya etishlari lozim;
- Universitet xodimlari korrupsion harakat sodir etganligi uchun javobgar hisoblanadi;
- Universitet ishga kiruvchi har qanday shaxs korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risidagi NIZOM bilan imzo qo‘ygan holda tanishishi va unga rioya etishi shart.

4.Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining elementlari

Universitet xodimlari fuqarolar (yuridik shaxslar) bilan munosabatlarda: halollik, adolatlik va insoflilik kabi xulq-atvor namunasini ko‘rsatish bilan birga, o‘zlarida korrupsion harakatlarga toqatsizlik munosabatini shakllantirishi lozim.

Huquqbuzarlikka qarshi kurash va aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish Antikorrupsion talablarni buzgan Universitet xodimlari:

- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda va asoslarda;
- intizomiy, ma’muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladilar.
- Universitet xodimlari o‘z rahbarini yoxud huquqni muhofaza qilish organlarini:
 - ularni huquqbuzarliklar sodir etishga og‘dirish maqsadida biror-bir shaxslarning qilgan murojaatlarining barcha holatlari to‘g‘risida;
 - boshqa davlat xizmatchilari tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklarning o‘zlariga ma’lum bo‘lgan har qanday holatlari haqida xabardor qilishi shart.

5.Universitetning korrupsiyaga qarshi kurashish prinsiplari:

- Qonuniylik - universitet va tarkibiy tuzilmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish chora tadbirlari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari, davlat boshqaruvi organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha jaxonda tan olingan amaliyotni hisobga olgan holda hamda universitet tizimining belgilangan ichki hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi;

- Korrupsiyaga toqatsizlik – Universitet o‘z faoliyatining barcha sohalarida korrupsiyaning har qanday shakllari va ko‘rinishlariga murosasiz munosabatda bo‘ladi.

- Ochiqlik va shaffoflik - universitet tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida xodimlarni hamda keng jamoatchilikni xabardor qilish.

Universitet tarkibiy tuzilmalarida korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy elementlari

- Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha asosiy ichki xujjatlarni Siyosat va Odob-axloq qoidalari tashkil etadi;

- Yuqori darajada rahbarlik namunasi: Universitet tarkibiy tuzilmalari rahbarlari o‘ziga bo‘ysunuvchilar, fuqarolik va yuridik shaxslar bilan munosabatda halol, adolatli va mustaqil xulq-atvor namunasi bo‘lishlari kerak;

- Universitet tarkibiy tuzilmalari faoliyatining korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimni yaratish va amalga oshirishda quyidagilar orqali yetakchilikni namoyish etadi:

Universitet tarkibiy tuzilmalari faoliyatining xavf-xatarga ega fuksiyalariga korrupsiyaga qarshi kurashish samarali chora-tadbirlarni joriy etadi, shu jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi yo‘l xaritasini ishlab chiqadi va uning ijrosini nazorat qilish orqali ko‘maklashadi;

- O‘z mansab majburiyatlarini bajarish doirasida qolgan xodimlarida korrupsiyaning barcha shakllari va ko‘rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirgan xolda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qonunchilik normalari va qabul qilingan ichki xujjatlarga rioya qiladi hamda axloqiy xulq-atvor yuzasidan shaxsan namuna sifatida namoyon bo‘ladi.

6.Ish jaryonidagi sovg‘alar

Universitet xodimlariga ularning shaxsi bilan bog‘liq bayramlar:

(tug‘ilgan kun, bola tug‘ilishi, Vatan ximoyachilari kuni, xotin-qizlar kuni)da berilgan, xizmat majburiyatlarini bajarishi bilan bog‘liq bo‘lmagan sovg‘alar xodimning shaxsi bilan bog‘liq sovg‘alar deb tan olinadi.

Bunday sovg‘alarni berishda quyidagi talablarga rioya qilish lozim:

- Sovg‘alar Universitet, tarkibiy tuzilmalarining kamida uch nafar xodimlari ishtirokida berilishi;

- Sovg‘a berish jarayoni tabrik nutqi bilan birga bo‘lishi, unda sovg‘a berishga sabab bo‘lgan voqea o‘zining aniq ifodasini topgan bo‘lishi;

- Sovg‘aning umumiy qiymati (barcha soliqlar va yig‘imlarni hisobga olgan xolda) 5 (besh) baravar bazaviy xisoblash miqdoridan oshmasligi lozim.

7.korrupsiyaga qarshi kurashish va odob-axloq qoidalari

Qoidalar:

- korrupsiya va huquqbuzarliklarning oldini olishga;

- ular sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishga;

- davlat xizmatchilarini yuksak huquqiy onglilik,

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga qat’iy rioya qilishga;
 - fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlashga yo‘naltirilgan.
- Xodimlar barcha qonun xujjatlari va qoidalari talablariga rioya etishlari shart.
- Qoidalarga rioya etish xodimlarning kasbiy faoliyatini va xizmatdagi xulq-atvorini baxolash mezonlaridan biri xisoblanadi.
- Ishga kirayotgan shaxslar Korrupsiyaga qarshi kurashish va axloq-odob qoidalari bilan imzo qo‘ydirgan xolda tanishtiriladilar.

8.Xodimlarning majburiyatlari

Xizmat vazifalarini bajarishda davlat prinsiplari va talablariga qat’iy rioya etish;

- o‘z xizmat vazifalarini vijdonan, yuksak kasbiy darajada bajarish;
- yuqori davlat organlari va mansabdor shaxslarning o‘z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlarni o‘z vaqtida sifatli bajarish;
- o‘z faoliyatini qonun xujjatlari va ichki xujjatlarda belgilangan lavozim vakolatlari doirasida amalga oshirish;
- normativ huquqiy hujjat va idoraviy xujjatlarda belgilangan cheklashlar va ta’qiqqlarga rioya qilish, o‘z xizmat vazifalarini og‘ishmay bajarish;
- xizmat mavqeidan davlat organlari, boshqa tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslari, shuningdek fuqarolar faoliyatiga noqonuniy ta’sir ko‘rsatish uchun foydalanmaslik;
- soxada korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish

Universitet xodimlarining xizmatdagi

xulq-atvorining asosiy prinsiplari va qoidalari

- Universitet xodimlari korrupsiya holatlariga qarshi kurashishi va ularning profilaktikasiga faol ko‘maklashishi shart.

Universitet xodimlari o‘z rahbarlarini yoxud huquqni muhofaza qilish organlarini ularni huquqbuzarliklar sodir etishga og‘dirish maqsadida biror-bir shaxslarning qilgan murojaatlarining holatlari to‘g‘risida, shuningdek boshqa xodimlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklarning o‘zlariga ma’lum bo‘lgan har qanday holatlari haqida xabardor qilishlari shart.

- Universitet xodimlarining kasbiy faoliyati davomida o‘zlariga ma’lum bo‘lgan axborotning saqlanishini va maxfiyligini ta’minlash yuzasidan barcha choralarni ko‘rishlari shart, o‘larning oshkor etilganligi uchun ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

- Rahbar o‘ziga bo‘ysunuvchi xodimlarga nisbatan yuqori professionalizm, soflik va adolatda o‘rnak bo‘lishi, davlat organida yoxud uning tarkibiy yoki hududiy bo‘linmasida ma’naviy psixologik muhit shakllanishiga ko‘maklashishi lozim.

- Rahbar o'ziga bo'ysunuvchi xodimlardan ularning xizmat vazifalari doirasidan chiqib ketadigan topshiriqlarni bajarishini talab qilmasligi, shuningdek qonunga xilof xatti-harakatlarni sodir etishga undamaslik kerak.

- Rahbar kadrlarni qarindoshlik, hamshaxarlik yoki shaxsiy sadoqat belgilari bo'yicha tanlash va joy-joyiga qo'yish xolatlariga yo'l qo'ymasligi zarur.

- Shuningdek rahbar guruhbozlik, mahalliychilik, favoritizm ko'rinishlari, shuningdek o'z xizmat vazifalarini bajarish jarayonida boshqa salbiy omillarning qat'iy ravishda oldini olishi lozim.

- Universitet xodimlari o'zlarining xizmat vazifalariga bo'lgan munosabati bilan jamoada ishchanlik, o'zaro xayrixohlik va amaliy hamkorlik muhitini qaror toptirishlariga intilishlari kerak.

- Universitet xodimlari:

- xushmuomala, iltifotli, odobli, e'tiborli;

- fuqarolar va hamkasblari bilan o'zaro munosabatda sabr-toqatli bo'lishi, ularni hurmat qilishi shart.

- Universitet xodimlari o'ziga bo'ysunuvchilarga va fuqarolarga nisbatan:

1. qo'pollik qilmasligi;

2. odamlarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitmasligi;

3. ularga asossiz psixologik va jismoniy ta'sir ko'rsatish holatlariga yo'l qo'ymasligi kerak.

- Universitet xodimlari xizmatdan tashqari vaqtda:

1. umumiy qabul qilingan odob-axloq normalariga rioya etishlari;

2. g'ayri ijtimoiy xatti-harakatlarga yo'l qo'ymasligi kerak.

Universitet xodimlari o'z xizmat vazifalarini bajarishda manfaatlar to'qnashuqiga sabab bo'ladigan shaxsiy manfaatdorlik xolatlariga yo'l qo'ymasliklari kerak.

- Universitet xodimlari manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi taqiqlanadi.

9.Korrupsiyaga qarshi kurashish va odob-ahloq qoidalarini buzganlik uchun javogarlik

- Korrupsiyaviy holatlar yoki boshqa huquqbuzarlik sodir etganlik qonun hujjatlariga muvofiq javogarlikka sabab bo'ladi;

- korrupsiyaviy holatlar yoki boshqa huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslar sudning qaroriga ko'ra muayyan huquqlardan, shu jumladan muayyan lavozimlarni egallash huquqidan qonunga muvofiq tarzda maxrum etilishi mumkin;

- xodimlar tomonidan qoidalarga rioya etilishi atestatsiyalar o'tkazishda, yuqori va boshqa lavozimlarga tavsiya etish uchun kadrlar zaxirasini shakllatirishda, taqdirlash yoki mukofotlarga tavsiya etishda xisobga olinadi;

- qoidalarda nazarda tutilgan normalarning buzilishi maxsus tarkibiy bo'linma mavjud bo'lmagan taqdirda, tegishli bo'linmalar xodimlari odatda 5-11 kishidan iborat tarkibda tuziladi.

6.Mavzu: KORRUPSIYAGA OID HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN JAVOBGARLIKNING HUQUQIY ASOSLARI

Reja

1. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik tushunchasi va uning turlari.
2. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun huquqiy javobgarlik turlari.
3. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun intizomiy va ma'muriy javobgarlik asoslari.
4. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun jinoiy javobgarlik asoslari
5. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar natijasida yetkazilgan zararni qoplash
6. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida axborot berayotgan shaxslarni himoya qilish
7. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan shaxslarni rag'batlantirishning vazifalari
8. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar natijasida qabul qilingan qarorlarni bekor qilish yoki o'zgartirish tartibi

1. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik tushunchasi va uning turlari.

Jamiyatda shunday illatlar borki, u ma'lum bir shaxs yoki sohaga emas, balki butun jamiyat taraqqiyotiga to'siq bo'ladi. Davlatni ich-ichidan yemiradigan ana shunday illat – korrupsiya va uning bir ko'rinishi bo'lgan poraxo'rlikdir. Aynan shu illat sababli ko'plab davlatlarning inqirozga yuz tutgani ham tarixdan ma'lum. So'nggi yillarda yurtimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida korrupsiogen omillarga chek qo'yishga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. BMTning xalqaro miqyosda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha ma'lumotida "korrupsiya" tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi: "Korrupsiya – bu shaxsiy maqsadlarda naf ko'rish uchun davlat hokimiyatini suiiste'mol qilish". Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Korrupsiya va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish, shuningdek, huquqbuzarliklarning oldini olish masalalarini samarali yechish ustuvor vazifalarimizdan biri bo'lib qoladi". Mamlakatda byurokratik to'siqlarni bartaraf etish choralari ko'rilmogda hamda "Korrupsiyasiz soha" loyihalari amalga oshiril moqda. Ushbu loyihadan maqsad – korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirish, eng yuqori darajada qulay bo'lgan ishbilarmonlik muhitini yaratish va mamlakatning xalqaro maydondagi ijobiy obro'e'tiborini oshirishga qaratilgan. Mamlakatimizda "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Ushbu Qonunning qabul qilinishi BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasida belgilangan talablar bajarilganidan dalolat beradi. Jumladan, har bir a'zo davlat korrupsiyaga qarshi kurashish borasida halollik va sodiqlik, oshkoralik va mas'uliyatlilik tamoyillarini aks ettiradigan samarali siyosatni olib borishi va korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan samarali amaliyot turlarini belgilash va rag'batlantirishga harakat qilishi kerak. Shuningdek, tegishli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlik korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan xalqaro dastur va loyihalarda ishtirok etishni qamrab olishi mumkin.

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi bilan “korrupsiya” tushunchasiga rasmiy ta‘rif berildi. Zero, Qonunning 3-moddasiga muvofiq, “Korrupsiya – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish”dir. Ushbu Qonunning qabul qilinishi asosida korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatining barcha tegishli xalqaro standartlarini o‘z ichiga olgan, xorijiy analog laridan qolishmaydigan darajadagi qonuniy asosi yaratildi. “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning 27-moddasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik belgilangan. Ushbu moddaga ko‘ra, “Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etganlik qonunchilikka muvofiq javobgarlikka sabab bo‘lishi, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar sudning qaroriga ko‘ra, muayyan huquqlardan, shu jumladan, muayyan lavozimlarni egallash huquqidan qonunga muvofiq mahrum etilishi mumkinligi hamda yuridik shaxslar korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun qonunda belgilangan tartibda javobgar bo‘lishi belgilangan”. Bugungacha korrupsiya deyilganda, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (JK)ning (210-moddasi) pora olish, (211-moddasi) pora berish, (212-moddasi) pora olish-berishda vositachilik qilishni nazarda tutuvchi dispozitsiyalar tushunilgan edi. Vaholanki, shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta‘sir ko‘rsatayotgan yoxud ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik, guruhlar manfaatlari yo‘lidagi harakatlar, xodimlarni pora va boshqa haq evaziga og‘dirish yo‘lidagi harakatlarga e‘tibor kam. Bu illatga qarshi kurashish – mamlakatimizda jadal sur‘atlarda olib borilayotgan huquqiy islohotlar sharoitida inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishning muhim vositalaridan biri bo‘lib kelmoqda. Mamlakatimizda korrupsiyani yengish, hokimiyat amaldorlarining halol ishlashini ta‘minlash, bozor iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, tadbirkorlar oldida turgan byurokratik to‘siqlarni olib tashlash, xalqqa va tadbirkorlarga xalaqit berayotgan to‘siqlarni bartaraf etish maqsadida bir qator qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi, “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi, “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari va “O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi kengaytirildi, jamoat va parlament nazoratini ta‘minlash mexanizmlari takomillashtirildi, shuningdek, huquqni muhofaza qilish va sud organlari faoliyatining huquqiy asoslari isloh qilindi. Mazkur hujjatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-

tadbirlar, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga chek qo'yish, javobgarlikning muqarrarligi kabi masalalar aniq belgilab qo'yilgan. Qonunda normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini tashkil etish davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlardan biri sifatida belgilangan. Zero, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri – korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlashdan iboratdir. Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilganligi uchun jinoiy, ma'muriy, intizomiy, moddiy javobgarli turlari nazarda tutilgan.

2. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun huquqiy javobgarlik turlari



Ushbu illat inson huquqlarining buzilishi, mamlakat taraqqiyoti va jamiyat ravnaqiga jiddiy ta'sir etar ekan, korrupsiyaga qarshi kurashish, bu illatni barcha soha va jabhalardan siqib chiqarish, yurtimizni korrupsiyadan xoli hududga aylantirish birgina davlat idorasi yoki jamoat tashkilotining vazifasi emas, balki shu davlat fuqarosi, jamiyat a'zolariga birdek tegishli bo'lgan vazifa, mas'uliyat hisoblanadi. Mansabdorlik jinoyati korrupsiyaning ko'rinishlaridan biri hisoblanib, uning xususiyati shundan iboratki, ushbu jinoyatlarni qonunning ijrosini ta'minlaydigan va uni qo'riqlaydigan shaxslar tomonidan sodir etiladi. Shu sababli korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklarni va jinoyatlarni o'rganish uchun bir qator mansabdorlik jinoyatlarini hamda mansabdor shaxslarning xizmat sohalarini tahlil qilish lozim bo'ladi.

3. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun intizomiy va ma'muriy javobgarlik asoslari

Korrupsiya hozirgi davrda ko'pqirrali illat hisoblanib, uni chuqur o'rganish va oldini olish uchun kompleks va tizimli yondashuv, davlat va jamiyat, nazariya va amaliyotning kuchlarini birlashtirish taqozo etadi. Eng avvalo, korrupsiya paydo bo'lishining obyektiv va subyektiv sabablarini o'rganish, shu sabablarni davlatchilik rivojlanishining mana shu bosqichidagi rivojlanishi bilan taqqoslash, shundan keyin korrupsiyaning kelib chiqishining ijtimoiy-iqtisodiy sabablarini yo'qotishga yo'naltirilgan amaliy qadamlarni tashlash va bu illatning oldini olishga qaratilgan turli yo'nalishdagi profilaktik tadbirlar majmuini ishlab chiqish zarur.

O'zbekiston Respublikasi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasida "korrupsiya", "korrupsiyaga oid huquqbuzarlik", "manfaatlar to'qnashuvi" tushunchalariga ta'rif berilgan. Ushbu tushunchalardan anglash

mumkinki, korrupsiya faqat pora olish yoki pora berish emas. Korrupsiya mansabni suiiste'mol qilish bilan bog'liq turli ma'muriy va jinoiy huquqbuzarliklardan iborat. Masalan, manfaatlar to'qnashuvini olaylik. Qonunchilikka ko'ra, manfaatlar to'qnashuvi – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat. Mansabdor xizmat faoliyatida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ysa, huquqbuzarlikning tarkibiga muvofiq intizomiy, ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Ma'muriy jazo javobgarlikka tortish chorasi bo'lib, u ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni qonunlarga rioya etish va ularni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, shuningdek, ana shu huquqbuzarning o'zi tomonidan ham, boshqa shaxslar tomonidan ham yangi huquqbuzarlik sodir etilishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi. Intizomiy javobgarlik xodim tomonidan intizomiy nojo'ya xatti-harakat sodir etgan hollarda qo'llanishi mumkin. Intizomiy nojo'ya xatti-harakat bu jismoniy shaxsning korxonasi, birlashma va muassasalarning ichki tartib-qoidalari, shuningdek mehnat, xizmat, o'quv, harbiy hamda boshqa shu kabi intizomni buzishga qaratilgan huquqqa qarshi harakatidir. Intizomiy jazolar, odatda, xizmat yoki ijro intizomi buzilishi, davlat xizmatchisiga nomunosib harakatlar davlat xizmatchisi degan nomga dog' tushiruvchi nojo'ya xatti-harakatlar uchun tayinlanadi. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 181-moddasiga asosan, xodimga mehnat intizomini buzganligi uchun ish beruvchi quyidagi intizomiy jazo choralari qo'llashga haqli: 1) hayfsan; 2) o'rtacha oylik ish haqining o'ttiz foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima. Ichki mehnat tartib-qoidalarida xodimga o'rtacha oylik ish haqining ellik foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima solish hollari ham nazarda tutilishi mumkin. Xodimning ish haqidan jarima ushlab qolish ushbu Kodeksning 164-moddasi talablariga rioya qilingan holda ish beruvchi tomonidan amalga oshiriladi; 3) mehnat shartnomasini bekor qilish (100-modda ikkinchi qismi ning 3 va 4-bandlari). Ushbu intizomiy choralar xodim tomonidan sodir etilgan huquq buzarliklarning turi, darajasiga muvofiq qonunchilikka asosan qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktyabrdagi 595-sonli qarori bilan tasdiqlangan Davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining namunaviy qoidalariga muvofiq, davlat xizmatchisi tomonidan odob-axloq qoidalarining buzilishi uni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortish uchun asos bo'lishi belgilangan. Davlat xizmatchisi tomonidan Odob-axloq qoidalariga rioya etilishi attestatsiyalar o'tkazishda, yuqori va boshqa lavozimlarga tayinlash uchun kadrlar zaxirasini shakllantirishda hisobga olinadi. Odob-axloq qoidalari normalarining buzilishi maxsus tarkibiy bo'linma yoki Odob-axloq komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi. Odob-axloq komissiyasi, maxsus tarkibiy bo'linma mavjud bo'lmagan taqdirda, davlat organi xodimlaridan kamida 5 kishidan iborat tarkibda tuziladi. Odob-axloq komissiyasining maqsadi, vazifalari, funksiyalari, huquqlari, javobgarligi va uning faoliyatini tashkil etishning boshqa masalalari davlat organi tomonidan tasdiqlangan Odob-axloq komissiyasi to'g'risidagi Nizomda belgilangan. Odob-axloq qoidalarining buzilishi holatlarini

maxsus tarkibiy bo‘linma yoki Odob-axloq komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha intizomiy yoki boshqacha tarzda buzilishlarining mavjudligi (mavjud emasligi) to‘g‘risida xulosa chiqariladi. Ayni vaqtda, davlat organi rahbari ko‘rib chiqishi uchun qoidalar buzilishini sodir etgan davlat xizmatchisini javobgarlikka tortish to‘g‘risida taklif kiritiladi. Yo‘l qo‘yilgan qoida buzilishining xarakterini hisobga olgan holda, Odob-axloq komissiyasi davlat xizmatchisiga nisbatan Odob-axloq qoidalarining buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risidagi ogohlantirish bilan cheklanishi mumkin. Davlat xizmatchilari o‘zlari yo‘l qo‘ygan qoida buzilishi, qoida buzilishining ko‘rib chiqilishi jarayoni haqida axborotni olish va o‘zini himoya qilish uchun dalillarni taqdim etish, shuningdek, davlat organi-ning qarorlari yuzasidan belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida mansabdor shaxslarning nojo‘ya xatti-harakatlari uchun javobgarligi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 15-moddasiga berilgan. Unga binoan, mansabdor shaxslar boshqaruv tartibini, davlat va jamoat tartibini saqlash, tabiiy muhitni, aholi sog‘lig‘ini muhofaza qilish sohasida belgilangan qoidalarga va bajarilishini ta‘minlash o‘z xizmat vazifalariga kiradigan boshqa qoidalarga rioya etmaganlik bilan bog‘liq ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etganliklari uchun ma‘muriy javobgarlikka tortilishlari lozim. 2020-yil 31-dekabrda “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risida”gi 829-sonli qaroriga ilova qilingan Nizomga ko‘ra70, korrupsiyaga oid ma‘muriy huquqbuzarliklarga – O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining (MJTK) 611 , 1931 va 1932 -moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar kiradi. O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida quyidagi bir qancha korrupsiyaviy huquqbuzarliklar uchun javobgarlik belgilangan: VII bob “Mulkka tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar uchun ma‘muriy javobgarlik” deb nomlanadi. Ushbu bobda nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisini pora evaziga og‘dirib olganlik (611 -modda) uchun javobgarlik nazarda tutilgan. XVI bob “Boshqaruvning belgilangan tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar uchun ma‘muriy javobgarlik” deb nomlanadi. Ushbu bobda davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organining xizmatchisini pora evaziga og‘dirib olganlik (1931 -modda), davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi xizmatchisining qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo‘lganlik (1932 -modda) uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etganlik uchun jazo choralari sifatida amaldagi MJTKda mansabdor shaxslarning korrupsiya bilan bog‘liq huquqbuzarlik sodir etganlik uchun ma‘muriy jarima jazosi nazarda tutilgan.

4. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun jinoiy javobgarlik asoslari

Jinoyat huquqida korrupsiya iborasi davlat idoralarida ishlaydigan mansabdor shaxslarning yoki davlat xizmatchilarining uyushgan guruh, shuningdek, boshqa jinoyatchi shaxslar bilan o‘zaro til birlashtirib, jinoyat sodir etishi yoki ularni jinoyat sodir etish uchun sharoit yaratib berishini anglatadi. Korrupsiya bilan bog‘liq

jinoyatni sodir etish va shaxsning harakatini kvalifikatsiya qilish hamda unga jazo tayinlash jinoyat huquqida katta ahamiyatga ega. Jinoyatlar orasida korrupsiya o'ta xavfli hisoblanib, insonning hayotiga, sog'lig'iga, mulkka, davlat barqarorligiga, shuningdek, bir qancha muhim obyektlarga zarar yetkazishi bilan jamiyatimizga katta xavf tug'diradi. Sudlar tomonidan 2020-yil davomida korrupsiya bilan bog'liq (JK 205-214, 243-moddalari) jami 2270 nafar shaxsga nisbatan 1502 ta jinoyat ishi ko'rib chiqilgan. Shundan 2 203 nafar shaxsga nisbatan 1457 ta jinoyat ishi bo'yicha hukm chiqarilgan. Jumladan: – 80 nafar shaxsga nisbatan 59 ta jinoyat ishi bo'yicha oqlov hukmi; – 2 123 nafar shaxsga nisbatan 1 398 ta ish bo'yicha ayblov hukmi chiqarilgan; – 67 nafar shaxsga nisbatan 45 ta jinoyat ishi tugatilgan. 2020-yil korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning sodir etilishiga sabab bo'lgan omillar statistikasi quyidagicha ko'rinishga ega: – 45 nafar shaxsga nisbatan davlat xaridlari bilan bog'liq qonun talablariga rioya qilinmaganligi; – 45 nafar shaxsga nisbatan huquqbuzarlikka qarshi kurashish borasidagi profilaktika ishlari samarali tarzda olib borilmaganligi; – 50 nafar shaxsga nisbatan davlat xizmatchilarini tanlov asosida saralab olish, lavozimga tayinlash va yuqori lavozimlarga ko'tarishning shaffof tartibining mavjud emasligi; – 55 nafar shaxsga nisbatan ayblanuvchining sohaga taalluqli bo'lmagan xizmatlarga birlashtirilganligi; – 88 nafar shaxsga nisbatan shaxsning (jabrlanuvchi) o'z manfaati yo'lida qonunni chetlab o'tishga urinishi yoki boshqa tarzdagi manfaatdorligi sababli jinoyatga yo'l ochib berganligi; – 99 nafar shaxsga nisbatan ish hajmining to'g'ri taqsimlanmaganligi va malakali xizmat ko'rsatilmashligi; – 122 nafar shaxsga nisbatan davlat organlari xodimlari mansab yoki xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'yganligi; – 179 nafar shaxsga nisbatan ishga qabul qilishda mansabdorning (xodimning) shaxsi lozim darajada o'rganilmaganligi, ayblanuvchining malaka darajasi yetishmasligi (muqaddam jinoyat sodir etganligi yoki sodir etishga moyilligi); – 262 nafar shaxsga nisbatan ayblanuvchining ijtimoiy ta'minlanmaganligi yoki adolatli mehnat sharoiti tashkil etilmaganligi; – 598 nafar shaxsga nisbatan tizimda ish faoliyati to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi, sohada byurokratik to'siqlarning mavjudligi (fao liyatning o'zi korrupsiyaga yo'l ochib berganligi); – 642 nafar shaxsga nisbatan fuqarolarning moddiy manfaatdorlik yoki shaxsiy boylik orttirish yo'lida jinoyatga qo'l urishi kabi omillar korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning sodir etilishiga imkon yaratgan⁷¹. 2021-yilda respublika bo'yicha jami 5483 nafar shaxsga nisbatan 3769 ta korrupsiyaga oid jinoyat ishlari ko'rib chiqish uchun, tegishli tartibda, sudlarga yuborilgan. 2020-yil bilan taqqoslaganda sudga yuborilgan jinoyat ishlari soni 2621 taga, javobgarlikka tortilgan shaxs lar soni esa 3 760 taga yoki 218 foizga ko'paygan⁷². Korrupsiyaga oid jinoyatlar oqibatida, davlat va jamiyat manfaatlariga 2020-yilda 500 mlrd. 102 mln. so'mlik moddiy zarar yetkazilib, 355 mlrd. so'm yoki 71,0 foizi undirilgan bo'lsa, 2021-yildagi moddiy zarar miqdori 1 trln. 282 mlrd.ni tashkil etib, 887 mlrd. so'mi yoki 69,1 foizi undirilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risida"⁷³gi 829-sonli qaroriga ilova qilingan Nizomga ko'ra,⁷³ korrupsiyaga oid

jinoyatlar O‘zbekiston Respublikasi JK 167-moddasining ikkinchi qismi “g” bandi, 168-moddasining uchinchi qismi “v” bandi, 192 va va 192, 205, 209-214-moddalari, 243-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlarni mansab mavqeidan foydalangan holda sodir etish hamda 301-moddasida ko‘rsatilgan jinoyatlar nazarda tutilgan. Ushbu korrupsiyaga oid jinoyatlarning xususiyatidan kelib chiqib, mazkur qilmishlar faqatgina maxsus subyekt hisoblangan mansabdor shaxs tomonidan sodir etiladi. Shuning uchun korrupsiya bilan bog‘liq qilmishlarni o‘rganish uchun mansabdorlik jinoyatlarni tahlil qilish lozim bo‘ladi. Korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarni nazarda tutuvchi Jinoyat kodeksi moddalari quyidagilardan iborat: O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi bo‘yicha korrupsiyaviy jinoyatlar iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar (JK uchinchi bo‘lim) da X bob (O‘zgalar mulkini talon-toroj qilish) keltirilgan bo‘lib, u quyidagilarni nazarda tutadi: O‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilish (167-modda ikkinchi qismi “g” bandi);

Firibgarlik (168-modda uchinchi qismi “v” bandi). Ushbu Kodeksning XIII bobi (Tadbirkorlik faoliyatiga to‘sqinlik qilish, qonunga xilof ravishda aralashish bilan bog‘liq jinoyatlar hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga tajovuz qiladigan boshqa jinoyatlar)da quyidagi qilmishlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan: Tijoratda pora evaziga og‘dirib olish (1929 -modda); Nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisini pora evaziga og‘dirib olish (19210-modda). O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining beshinchi bo‘limi (Hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlar) XV bobida quyidagi boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Ushbu Kodeksning oltinchi bo‘limi (Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar) XVII bobida jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Ushbu bobda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirganlik (243-modda) uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlar deb nomlangan yettinchi bo‘limda harbiy mansabdorlik jinoyatlari belgilangan. Unda hokimiyatni suiiste‘mol qilish, hokimiyat vakolatidan tashqariga chiqish yoki hokimiyat harakatsizligi (301-modda) uchun javobgarlik belgilangan.

Boshqarish tartibiga qarshi jinoyatlar

1. Xokimiyat yoki mansab vakolatini siustemol qilish (205-, modda);
 2. Mansab soxtakorligi (209-modda);
 3. Pora olish (210-modda);
 4. Pora berish (211-modda);
 5. Pora olish-berishda vositachilik qilish (212-modda);
 6. Davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot xizmatchisining qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo‘lishi (214-modda);
- Korrupsiyaning eng tarqalgan ko‘rinishi bu – poraxo‘rlik. Poraxo‘rlikning eng xavflisi, bu Jinoyat kodeksning 210-moddasida nazarda tutilgan pora olish jinoyatidir. Mansabdor shaxs tomonidan pora olish jinoyatining ijtimoiy xavfliligining yuqoriligi quyidagilar: - davlat organi normal faoliyatining buzilishi; - davlat organi obro‘sining tushishi; - fuqarolarning ijtimoiy adolatga bo‘lgan ishonchining so‘nishi; - fuqarolarning huquq va manfaatlari buzilishiga olib kelishi bilan belgilanadi. Korrupsiya illatining asosiy sabablaridan biri, mansab vakolatini

suiiste'mol qilish yoki foydalanish orqali noqonuniy tarzda moddiy qimmatliklarga ega bo'lish yoxud mulkiy manfaatdor bo'lish tushuniladi. Ushbu daromadlarga qonuniy tus berish va ulardan foydalanish maqsadida, ular tomonidan bunday daromadlarni legallashtirish harakatlari sodir etiladi. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi talablaridan kelib chiqib, "Mansabdor shaxs" atamasining huquqiy ma'nosi sifatida, "Mansabdor shaxs – doimiy, vaqtincha yoki maxsus vakolat bo'yicha tayinlanadigan yoki saylanadigan, hokimiyat vakili vazifalarini bajaradigan yoxud davlat organlarida, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida, mulk shaklidan qat'i nazar, korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda tashkiliy-boshqaruv, ma'muriy-xo'jalik vazifalarini amalga oshiradigan va yuridik ahamiyatga ega harakatlarni sodir etishga vakolat berilgan shaxs, xuddi shuningdek, xalqaro tashkilotda yoxud chet davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ma'muriy yoki sud organida mazkur vazifalarni amalga oshiruvchi shaxs", deb bayon etildi. Korrupsiyaga qarshi kurashish muntazam va kompleks tarzda olib borilib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarini, ayniqsa, davlat boshqaruvi va iqtisodiyotni qamrab olmog'i darkor. Bu borada, albatta, katta e'tibor korrupsiyani oldini olish chora-tadbirlariga qaratilishi bilan bir vaqtda, jinoiy-huquqiy choralar majmuiga ham e'tibor qaratishimiz joiz bo'ladi. Korrupsiyaviy jinoyatlar uchun javobgarlik masalalarida quyi dagilarga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi: – korrupsiyaviy qilmishlar davlat hokimiyati va boshqaruvi, jamoat birlashmalari faoliyati bilan bog'liq davlat apparatining normal faoliyatini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlar va bu munosabatlarda ayrim fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga tajovuz qiladi; – hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish, mansabdor shaxs tomonidan o'z mansab vakolatlaridan davlat manfaatlariga zid ravishda, foydalanish deyarli barcha korrupsiyaviy jinoyatlar obyektiv tomonining asosiy belgisi hisoblanadi; – barcha korrupsiyaviy jinoyatlarning subyektiv tomoni to'g'ri qasdning, aksariyat jinoyatlar g'arazgo'ylik yoki boshqa manfaatdorlikning mavjudligi bilan tavsiflanadi; – ayrim korrupsiyaviy jinoyatlarning zaruriy belgisi bo'lgan "jiddiy ziyon" tushunchasi aynan qanday oqibatlarini qamrab olishi haqida rasmiy izohning mavjud emasligining o'ziyoq korrupsiyaviy xavfni yuzaga keltirishi mumkin.

5. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar natijasida yetkazilgan zararni qoplash

BMT tomonidan keltirilgan ma'lumotlarga asosan, jahon hamja miyatida har yili 1 trillion AQSH dollar hajmida pora berish va olish holatlari sodir etiladi. Dunyo iqtisodiyoti har yili korrupsiya tufayli 2,6 trillion AQSH dollaridan ortiq mablag'dan ayriladi, bu jahon yalpi ichki mahsulotining 5 foizini tashkil etishi ma'lum qilingan edi⁷⁴. Agarda milliy doirada korrupsiyaga oid jinoyatlarning sodir etilishi borasidagi statistik raqamlarga to'xtaladigan bo'lsak, 2017–2020-yillar davomida 6127 nafar mansabdor shaxsning jinoiy javobgarlik masalasi hal qilingan. Bulardan 2018-yil davomida davlat ulushi bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar mansabdor shaxslariga jami 351 ta (2019-y. 129 ta), davlat ulushi bo'lmagan xo'jalik yurituvchi subyektlar mansabdor shaxslariga 2018-yil davomida 362 ta (2019-y. 401 ta) jinoyat ishi mavjud ekanligini ko'rsatmoqda. Shuningdek, mansabdor shaxslarning korrupsiyaga oid jinoyatlari oqibatida davlat va jamiyat manfaatlariga 2017-yilda – 142 mlrd. 662 mln. so'm, 2018-yilda – 559 mlrd. 174 mln. so'm, 2019-yilda esa – 1

trln. 853 mlrd. so‘m, 2020-yilda – 500 mlrd. 102 mln. so‘m, 2021-yilda – 913,7 mlrd. so‘m miqdorida moddiy zarar yetkazilgan. Shuningdek, 2020-yilda – 355 mlrd. 754 mln. so‘m, 2021-yilda – 714,8 mlrd. so‘m miqdorida moddiy zarar huquqbuzarlardan undirilgan. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilganligi natijasida qabul qilingan qaror bekor qilingan, o‘zgartirilgan yoki haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, uning qabul qilinishi natijasida jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararining o‘rni qonunchilikda belgilangan tartibda qoplanishi lozim. Jinoiy javobgarlikka tortilgan mansabdor shaxslarning deyarli teng yarmi mulkni talon-taroj qilganligi, har beshtadan bittasi – mansab vakolatlarini suiiste‘mol qilganligi va har yettitadan biri poraxo‘rlik uchun sudga berilganligi holati bu masalaning jiddiy ekanligini ko‘rsatadi. Mansabdorlarning korrupsiyaga oid qilmishlari oqibatida, jiddiy iqtisodiy zarar yetmoqda. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar natijasida yetkazilgan zararni qoplash masalalari fuqarolar, korxonalar, muassasa, tashkilotlar, tadbirkorlik subyektlari, shuningdek, davlatning mulkiy huquq va manfaatlarini himoyasini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jinoyat-protsessual kodeksi (JPK)ning 82-moddasiga muvofiq surishtiruv, dastlabki tergov olib borish chog‘ida aniqlanishi lozim bo‘lgan holatlardan biri jinoyat natijasida, jumladan, korrupsiyaga oid qilmishlar natijasida yetkazilgan zarar xususiyati va miqdori hisoblanadi, chunki yetkazilgan zarar turi va miqdorini aniqlash nafaqat uni qoplash masalasini hal etish, balki jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun ham ahamiyatlidir. Surishtiruv, dastlabki tergov organlari, korrupsiyaga oid qilmishlar natijasida yetkazilgan mulkiy zarar qoplanishini ta‘minlashning muhim huquqiy mexanizmi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, fuqaroviy javobgarning mol-mulkini JPK 290-moddasiga muvofiq, tezkorlik bilan xatlash lozim hisoblanadi. JPK 290-moddasi mazmuniga ko‘ra, gumonlanuvchi va ayblanuvchiga tegishli, uchinchi shaxslarda bo‘lgan mol-mulkka ham, basharti ish bo‘yicha ish yuritish davomida ushbu mulk amalda gumonlanuvchi yoki ayblanuvchiga tegishli deb hisoblashga yetarli asoslar bo‘lsa, taqiq solinishi mumkin. Bunda har bir muayyan holda xatlanayotgan mol-mulk JPK 293-moddasi talablariga rioya etilgan tarzda mutaxassis yoki baholovchi tashki lot jalb etilgan holda baholanishi va bayonnoma bilan rasmiylashtirilishi lozim. Hukmning mulkiy ziyonni qoplashga oid qismi ijrosi samaradorligini oshirish maqsadida, surishtiruv, dastlabki tergov organlari, shuningdek, JPK 280-moddasiga rioya etgan holda, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, fuqaroviy javobgarning muayyan harakatlarni amalga oshirishini taqiqlash kabi JPK 249-moddasida nazarda tutilgan choralarni qo‘llashni amaliyotga kiritishlari lozim. Jinoyat ishini ko‘rish uchun tayinlashda sud jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash choralari ko‘rilganligi, fuqaroviy da‘vo kiritilganligini aniqlashi lozim. Agarda surishtiruv, dastlabki tergov organi, prokuror tomonidan bunday choralar ko‘rilmagan bo‘lsa, sudya JPKning 290, 396-moddalariga asosan, o‘z tashabbusi bilan bunday choralarni ko‘radi, biroq sud bunday choralarni bevosita ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lmasa, surishtiruvchi yoki tergovchiga zarur choralarni ko‘rish majburiyatini yuklash bo‘yicha ajrim chiqaradi (JPK 398-moddasi). Korrupsiyaga oid qilmishlar natijasida yetkazilgan moddiy zararni undirish masalasini hal etishda mol-mulkning hukm chiqarilgan kundagi qiymatidan kelib chiqish lozim. Bunda valyuta qimmatliklari qiymati O‘zbekiston Respublikasi

Markaziy banki tomonidan hukm chiqarilgan kunda belgilangan kurs bo'yicha aniqlanadi.

6. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida axborot berayotgan shaxslarni himoya qilish

O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunining 28-moddasi "Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi axborotni xabar qiluvchi shaxslarni va ularning yaqin qarindoshlarini himoya qilishga bag'ishlangan bo'lib, unga ko'ra, "korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi axborotni xabar qiluvchi shaxslar va ularning yaqin qarindoshlari davlat himoyasida bo'ladi. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida xabar qiluvchi shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar xizmat sirini tashkil etadi hamda faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va shaxsning o'zining, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi organ rahbarining yozma ruxsati asosida oshkor etiladi". Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida xabar qiluvchi shaxs larning hamda ularning yaqin qarindoshlarining hayotiga va sog'lig'iga haqiqiy tahdidni, ularga nisbatan zo'rlik ishlatilganligini, ularning mol-mulki yo'q qilinganligini yoki shikastlantirilgani tasdiqlovchi yetarli asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, korrupsiyaga qarshi kurashishni amalga oshiruvchi organlar O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 14-yanvardagi "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq ularni himoya qilish bo'yicha zarur choralar ko'rishi shartligi kafolatlangan. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi axborotni xabar qiluvchi shaxslarning va ularning yaqin qarindoshlari huquqlari va qonuniy manfaatlariga korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida xabar qilganligi sababli tajovuz qilishga, shuningdek, ish beruvchi tomonidan ularning mehnatga oid huquqlari buzilishiga yo'l qo'yilmaydi hamda bu Qonunga ko'ra javobgarlikka sabab bo'lishi belgilab qo'yilgan. Ushbu moddaning qoidalari korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida bila turib yolg'on axborotni xabar qilgan shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi, ular bunday huquqbuzarlik uchun qonunga muvofiq javobgar bo'ladi. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida xabar qiluvchi shaxslarni rag'batlantirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda asosida, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom asosida olib boriladi. Ushbu Nizom "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibini belgilaydi. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan shaxslarni rag'batlantirish qonuniylik, adolatlilik, xolislik, oshkoralik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash va xohishistaklarini hisobga olish prinsiplari asosida amalga oshirilishi lozim. Nizomning 7-bandiga ko'ra, rag'batlantirish bir martalik pul mukofoti, tashakkurnoma yoki esdalik sovg'a

shaklida belgilangan.

7. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan shaxslarni rag‘batlantirishning vazifalari

1. Jamiyatda korrupsiyaning barcha ko‘rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish
2. Ushbu sohada davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta‘minlash
3. Korrupsiyaning barvaqt profilaktikasini ta‘minlash, bunga imkon berayotgan shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish
4. Aholining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish hamda ularni munosib taqdirlash

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslar quyidagi asoslardan biri mavjud bo‘lganda, bir martalik pul mukofoti bilan rag‘batlantiriladi: fuqarolar yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tomonidan o‘zlariga nisbatan pora talab qilgan shaxs haqida yoki o‘zlariga ma‘lum bo‘lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlarga bergan xabari asosida bunday huquqbuzarlik fosh etilishi; nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining yoxud davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organining xizmatchisi o‘ziga nisbatan pora berishni taklif etgan yoki pora talab qilgan shaxs haqida yoxud o‘ziga ma‘lum bo‘lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlarga (korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlarning xodimlari esa, bevosita o‘z rahbariga) bergan xabari asosida huquqbuzarlik fosh etilishi; korrupsiyaga oid jinoyatni sodir etganligi uchun qidiruvda bo‘lgan shaxs to‘g‘risida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga berilgan xabar asosida qidiruvdagi shaxs ushlanishi, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlari bundan mustasno. Nizomning 9-bandiga muvofiq, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslar quyidagi miqdordagi bir martalik pul mukofoti bilan rag‘batlantiriladi: a) korrupsiyaga oid ma‘muriy huquqbuzarlik haqida berilgan xabar uchun – bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida; b) pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o‘zlashtirilayotgan (o‘zlashtirilgan) mulkning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining o‘ttiz baravarigacha bo‘lsa: ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat uchun – bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari miqdorida; uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat uchun – bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravari miqdorida; og‘ir jinoyat uchun – bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravari miqdorida; o‘ta og‘ir jinoyat uchun – bazaviy hisoblash miqdorining o‘n besh baravari miqdorida;) pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o‘zlashtirilayotgan (o‘zlashtirilgan) mulkning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining o‘ttiz baravaridan yuz baravarigacha bo‘lsa: ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat uchun – bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravari miqdorida; uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat uchun – bazaviy hisoblash miqdorining o‘n besh baravari miqdorida; og‘ir jinoyat uchun – bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravari miqdorida; o‘ta og‘ir jinoyat uchun – bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravari miqdorida; g) pora summasi

yoki yetkazilgan zarar yoxud o‘zlashtirilayotgan (o‘zlashtirilgan) mulkning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ko‘p bo‘lsa, quyidagi foiz hisobida hisoblanadi: ancha miqdor uchun – pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o‘zlashtirilayotgan (o‘zlashtirilgan) mulk qiymatining o‘n besh foizi miqdorida; ko‘p yoki juda ko‘p miqdor uchun – pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o‘zlashtirilayotgan (o‘zlashtirilgan) mulk qiymatining o‘n foizi miqdorida. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish masalasi korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlar huzurida tuziladigan maxsus komissiyalar tomonidan ko‘rib chiqiladi. Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlarning rag‘batlantirish bo‘yicha taqdimnomasi va unga ilova qilingan asoslovchi hujjatlar rag‘batlantirish uchun asos yuzaga kelgan kundan boshlab, uch ish kuni ichida maxsus komissiyalarga taqdim etiladi. Maxsus komissiyalar tomonidan rag‘batlantirishga oid hujjatlar olingan kundan boshlab, besh ish kuni ichida taqdim etilgan hujjatlarning to‘liqligi, asosiligi hamda ushbu Nizom talablariga rioya qilinganligi ko‘rib chiqiladi. Rag‘batlantirish uchun taqdim etilgan hujjatlar to‘liq emasligi hamda ushbu Nizom talablariga rioya qilinmaganligi aniqlangan taqdirda, ikki ish kuni ichida qaytariladi. Qaytarilish uchun asos bo‘lgan holatlar bartaraf etilgan taqdirda, tegishli hujjatlar ushbu Nizom talablari asosida rag‘batlantirish uchun qayta taqdim etilishi mumkin. Rag‘batlantirish bo‘yicha maxsus komissiyalar tomonidan chiqarilgan qarorlar uch ish kuni ichida taqdimnomani kiritgan korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organga ijro uchun yuboriladi. Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organ maxsus komissiyaning qarori asosida bir ish kuni ichida bir martalik pul mukofoti yoki esdalik sovg‘asi bilan taqdirlash haqida qaror chiqaradi. Bir martalik pul mukofoti xarajatlar smetasiga o‘zgartirish kiritilgandan so‘ng o‘n ish kuni ichida shaxslarning shaxsiy hisobvarag‘iga o‘tkazib beriladi, esdalik sovg‘asi esa, qonun hujjatlariga muvofiq sovg‘a qilinadigan buyum xarid qilingandan so‘ng besh ish kuni ichida topshiriladi. Tashakkurnoma shaklida rag‘batlantirish masalasi bevosita korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organ rahbari tomonidan ko‘rib chiqiladi. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslar, ularning oila a‘zolari va yaqin qarindoshlarining xavfsizligini ta‘minlash maqsadida, ular haqidagi ma‘lumotlar qonun hujjatlarida belgilangan talablar asosida oshkor etilishi mumkin. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslar, ularning oila a‘zolari va yaqin qarindoshlarini himoya qilish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

8. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar natijasida qabul qilingan qarorlarni bekor qilish yoki o‘zgartirish tartibi

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunining 29-moddasida “Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar natijasida qabul qilingan qarorlarni bekor qilish yoki o‘zgartirish” tartibi belgilangan. Unga ko‘ra, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar natijasida qabul qilingan qarorlar manfaatdor shaxsning arizasiga ko‘ra, vakolatli davlat organi, boshqa tashkilot yoki mansabdor

shaxs tomonidan bekor qilinishi yoxud o'zgartirilishi yoki sud tartibida haqiqiy emas deb topilishi mumkinligi ta'kidlangan. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilganligi natijasida qabul qilingan qaror bekor qilingan, o'zgartirilgan yoki haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, uning qabul qilinishi natijasida jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararning o'rni qonunchilikda belgilangan tartibda qoplanishi nazarda tutilgan. Bu holat O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunida ham ko'zda tutilgan. Jumladan, ushbu Qonunning 59-moddasi "Ma'muriy hujjatni bekor qilish, o'zgartirish yoki haqiqiy emas deb topish"ga bag'ishlangan bo'lib, unga ko'ra, ma'muriy hujjat manfaatdor shaxsning arizasi yoki ma'muriy shikoyatiga ko'ra, ma'muriy hujjatni qabul qilgan ma'muriy organ, yuqori turuvchi ma'muriy organ tomonidan, shuningdek, qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda boshqa organlar tomonidan ham bekor qilinishi yoki o'zgartirilishi mumkinligi belgilangan. Shuningdek, ma'muriy hujjatni bekor qilish yoki o'zgartirish zaruriyati qonunchilikdagi o'zgartishlar, jamoat manfaatlariga bo'lgan tahdidning oldini olish, ma'muriy hujjatning qonunchilikka nomuvofiqligi aniqlanganligi sababli yuzaga kelgan hollarda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ma'muriy organ o'zi qabul qilgan ma'muriy hujjatni o'z tashabbusiga ko'ra, bekor qilishga yoki o'zgartirishga haqli ekanligi ta'kidlangan.

7. Mavzu: O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish.

Reja

- 1). Umumiy qoidalar.
- 2). Mas’ul tarkibiy bo‘linmalar xodimlarining majburiyatlari va vakolatlari.
- 3). Manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi ma’lumotlarni oshkor qilish va ko‘rib chiqish tartibi.
- 4). Manfaatlar to‘qnashuvini hal qilish choralari.

1. Kontragent – universitet, filiallar, texnikumlar va litsey bilan shartnomaviy munosabatga kirgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxslar, mehnat munosabatlari, abituriyentlar, joriy talabalar va o‘kuvchilar bundan mustasno.

Manfaatlar to‘qnashuvi - shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik, universitetdagi xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan institutning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat. Manfaatlar to‘qnashuvini oshkor qilish - xodimlar tomonidan potentsialli yoki haqiqiy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida e’lon qilish tartib-taomili.

Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish - universitetning manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi natijasida universitet xodimining xizmat vazifalarini tegishli tarzda bajarishlari va (yoki) xodimlarning shaxsiy manfaatlari institutning manfaatlaridan ustun bo‘lishi xatarini kamaytirish yoki bartaraf etish maqsadlarida amalga oshiradigan chora-tadbirlar majmui.

Mahalliychilik - shaxsni faqatgina qarindoshligi (qarindoshni hamma bilishi/mashxurligi va uning jamoatchilik tomonidan keng e’tirof etilgan) va bunday shaxsning xokimiyat vakolatiga ega bo‘lgan organlardagi qarindoshlarining xizmat mavqei sababli lavozimga qo‘yiladigan malaka talablarini hisobga olmasdan ishga yollash, rotatsiya qilish, lavozimga tayinlash.

Nepotizm (tanish-bilishchilik) - o‘zining yaqin qarindoshlari yoki do‘stlariga g‘ayriqonuniy imtiyozlar berish maqsadida xokimiyatdan foydalanish va (yoki) ta’sir o‘tkazish, shuningdek yaqin qarindoshlari va (yoki) do‘stlariga asossiz mukofotlar hisoblash, universitet manfaatlari zarariga yaqin qarindoshlari va do‘stlarini ishga qabul qilish va lavozimga tayinlashlar.

Potensial manfaatlar to‘qnashuvi - xodimning, uning yaqin qarindoshlarining yoki universitet bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsning shaxsiy manfaatlari (shu jumladan shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlar) muayyan vaziyatlar yuzaga kelganda, ular universitet manfaatlariga qarama-qarshi bo‘lishi va universitet xodimlari tomonidan xizmat majburiyatlarini bajarishiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan vaziyat.

Urug‘-aymoqchilik - xodimning umumiy ajdodga ega bo‘lgan muayyan qarindoshga mansubligi asosida uchinchi shaxslarga nisbatan subyektiv, iltifotli va noxolis munosabatda bo‘lish shakldagi shaxsiy manfaatining namoyon etilishi.

Favoritizm - universitet xodimi bir shaxs yoki bir guruh shaxslar manfaatlarini boshqa shaxs va (yoki) shaxslar guruhi manfaatlaridan ustun qo'yishi, shu bilan birga, universitetda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, lavozimi bo'yicha ko'tarish, mukofotlarni hisoblash va davlat mukofotlariga tavsiya qilish, mehnat ta'tillari berish yoki sanatoriylar va xorij safarlariga yuborish, murojaatlarni ko'rib chiqish navbatini, shuningdek ish vaqti va navbatchilik grafiklarini belgilash shular jumlasidandir.

Xodimning shaxsiy manfaatdorligi — universitet xodimi tomonidan o'z xizmat vazifalarini bajarish chog'ida uning yaqin qarindoshi yoki xodimga aloqador bo'lgan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan pul mablag'lari, moddiy yoki nomoddiy qimmatliklar, boshqa mol-mulk, boylik va imtiyozlar ko'rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlarini).

Haqiqiy manfaatlar to'qnashuvi-xodimning, uning yaqin qarindoshlarining va (yoki) universitet bilan bog'liq bo'lgan shaxsning shaxsiy manfaatlarini (shu jumladan shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlarini) institut manfaatlariga bevosita yoki bilvosita qarama-qarshi bo'lgan vaziyat.

Yaqin qarindoshlar - qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo'lgan shaxslar, ya'ni ota-ona, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, shuningdek er-xotinning ota-onasi, tug'ishgan va uning aka-uka va opa-singillari.

Universitetimizda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish masalalarida quyidagi asosiy prinsiplarga amal qilinishi shart:

fuqarolarning huquqdari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi; uz xizmat vazifalarini bajarishda davlat manfaatlarini shaxsiy manfaatdorligidan ustun qo'yishi;

oshkoralik, vijdonlilik va xolislik asosida qarorlar qabul qilinishi; potensial yoki haqiqiy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi axborotni oshkor qilishning majburiyligi;

Manfaatlar to'qnashuviga qarshi profilaktik choralarning ustuvorligi; manfaatlar to'qnashuvi holatlarini ko'rib chiqish va manfaatlar to'qnashuvini hal qilishda jamoaviylikka amal qilishi; manfaatlar to'qnashuvi alomatlari bilan tavsiflangan vaziyatlarni ko'rib chiqish, baholash va hal qilishga xolis yondashuvi;

Ushbu Nizomda belgilangan tartibda institut xodimlari tomonidan taqdim etilgan manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashi;

Agar xodim biron-bir qaror qabul qilishdan avval yoki o'ziga yuklatilgan funksiyalarni bajarishdan oldin manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida tegishli tartibda xabar bergan hamda institut manfaatlarini foydasiga uz shaxsiy manfaatlaridan voz kechishga tayyor bo'lsa, uni haqiqiy yoki potensial manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi sababli ishdan bushatilishiga yo'l quyilmasligi.

2.Vazirlik tizimi xodimlari xodimlari o'zlarining xizmat majburiyatlarini

bajarishida yoki vazirlik manfaatlarini manfaatlarini ifodalashda ushbu Nizomda belgilangan tamoyillarga amal qilishlari, shuningdek manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan vaziyatlardan o'zlarini saqlashlari shart.

-Xizmat vazifalarini bajarishda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish uchun vazirlik tizimining xodimlari:

- faqat vazirlik manfaatlarini ko'zlashi;
- o'z xizmat mavkeidan faqat vazirlik manfaatlarida foydalanishi;
- vazirlikning manfaatlariga zid keladigan yoki zid kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatlar to'g'risida vazirlikni xabardor qilishi;
- nepotizm (tanish-bilishchilik), favoritizm, mahalliychilik, xomiylik va Urug'-aymoqchilikning namoyon bo'lishiga kat'iy chek qo'yishi;
- potensial yoki xaqiqiy manfaatlar to'qnashuvi xaqidagi ma'lumotlarni uz vaqtida va to'liq oshkor qilishi;
- o'zining yaqin qarindoshlari va aloqador shaxslari to'g'risidagi ma'lumotlarning to'liq ro'yxatini, o'zining va ularning nodavlat notijorat tashkilotlaridagi ishtiroki xdkidagi ma'lumotlarni halol, to'liq; va vijdonan oshkor qilishi shart.

Manfaatlar to'qnashuvini oldini olish maqsadida vazirlik tizimining xodimlari quyidagi hollarda manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabar berishi kerak.

Manfaatlar tuknaiguviga olib kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarga quyidagilar kiradi:

- xodimning bo'ysunuvida yaqin qarindoshlari va (yoki) o'zaro bog'langan shaxslar bo'lsa;
- xodim yaqin qarindoshlari va (yoki) o'zaro bog'langan shaxslarga nisbatan kadrlar masalasi bo'yicha qarorlar qabul qilishi (shu jumladan, ish xakini hisoblash va tulash, mukofotga, ish xdkiga qushimchalar va rag'batlantirishning boshqa turlariga tavsiya qilish va uning summasini belgilashi);
- xodim va (yoki) uning yaqin qarindoshlari tijorat tashkilotlarining aksiyalariga yoki ulushga egalik qilishi (xodim va (yoki) uning yaqin qarindoshlari Respublika Fond birjasida yoki boshqa fond birjalarida ochiq muomalada bo'lgan aksiyadorlik jamiyatining besh foizdan kam bo'lgan aksiyalariga egalik qilishi bundan mustasno);
- xodim va (yoki) uning yaqin qarindoshlari turli tashkilotlarni (shu jumladan, tijorat va nodavlat notijorat tashkilotlarini) boshqarishda ishtirok etishlari;
- xodim uning yaqin qarindoshi va (yoki) o'zaro bog'langan shaxs mas'ul hisoblanadigan vazirlik tizimining ma'lum funksiyalarini nazorat qiladi;
- xodimning shaxsiy manfaatdorligi bo'lgan shaxslardan va (yoki) uning yaqin qarindoshi bo'lgan shaxslardan tovarlar xarid qilish, xizmatlar ko'rsatish yoki ishlarni bajarish bo'yicha qarorlar qabul qilishda ishtirok etishi;
- oliy va o'rta maxsus, professional ta'lim tizimi muassasalarining qabul komissiyasi a'zosi o'zining yaqin qarindoshlari va ularning farzandlarini, o'zaro yaqin shaxslari va ularning farzandlarini o'qishga qabul qilish bo'yicha qaror (shu jumladan kollegial) qabul qilishi, shuningdek, shaxsiy manfaatdorlik asosida o'qishga qabul qilishni amalga oshirishi;
- xodim o'zining yaqin qarindoshlari va ularning farzandlarini grant mablaglari hisobiga moliyalashtiriladigan ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirayotgan ilmiy

jamoaga jalb etish to'g'risida (o'zi yoki kollegial) shaxsiy manfaatdorlik asosida noholis tarzda qaror qabul qilishi;

- grant mablaglari xisobiga moliyalashtiriladigan ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish jarayonida xodim vazirlik tizimining shtat xodimi hisoblanishi;
- xodim o'zining yaqin qarindoshlari va ularning farzandlarini o'qishini ko'chirishi (qayta tiklash to'g'risida) qaror qabul qilishni amalga oshirilishi;
- vaziyatdan kelib chiqib, boshqa holatlar ham manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi holat sifatida baholanishi mumkin.

Vazirlik tizimi xodimlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa faoliyat turlari bilan shugullanish huquqiga ega.

Mazkur Nizomning 6-ilovasida ko'rsatilgan manfaatlar to'qnashuvi holatlarini aniqlash uchun xodim qaror chiqarishidan avval yoki xizmat vakolatlarini amalga oshirishdan oldin o'ziga quyidagi savollarni berishi lozim: "Men vijdonan va holisona qaror qabul kila olamanmi?", "Agar ushbu qarorni vazirlikning boshqa xodimi qabul qilsa, mening fikrimga o'xshash fikrga kelarmidi?" Agar xodim ikkita savollardan biriga "yo'q" deb javob bersa, manfaatlar to'qnashuvining kelib chiqishi xavfi mavjud bo'ladi.

Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish uchun vazirlik ushbu Nizomning 6-ilovasiga muvofiq choralar ko'rishlari kerak.

3. Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

vazirlik tizimida vakant bo'lgan bush ish joylariga nomzodlarni lavozimga tayinlash va rotasiya qilishda manfaatlar to'qnashuvini dastlabki tarzda oshkor qilish; manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish (xar yillik deklarasiya); potensial yoki haqiqiy manfaatlar to'qnashuvi fakti bo'yicha ma'lumotlarni oshkor qilish.

Vazirlik tizimidagi bush ish joylariga nomzodlarni lavozimga tayinlash va rotasiya qilishda manfaatlar to'qnashuvini dastlabki tarzda oshkor qilish kadrlar bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassisga quyidagi hujjatlarni taqdim etish yo'li bilan amalga oshiriladi:

ma'lumotnoma-obyektivka va mazkur Nizomning 1-ilovasiga muvofiq shakldagi (xodim tomonidan ichki hujjatlarda nazarda tutilgan hujjatlarni avval taqdim etganligidan qat'iy nazar) ma'lumotlar (yaqin qarindoshlar, aloqador shaxslar, ustav kapitalida xodim yoki uning yaqin qarindoshlarining ulushi bo'lgan yuridik shaxslar, nodavlat notijorat tashkilotlarida xodimning va (yoki) uning rahbarlik lavozimlarini egallab turgan yaqin qarindoshlarining ishtiroki);

mazkur Nizomning 2-ilovasiga muvofiq lavozimga tayinlanganda yoki yillik deklarasiyani uzgartirish (to'ldirish) paytida manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi (mavjud emasligi) to'g'risidagi ariza to'ldiriladi.

Manfaatlar to'qnashuvini dastlabki tarzda oshkor qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

xodim tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni kadrlar bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassis ularda manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi yoki yo'qdigini bo'yicha tekshiradi. Manfaatlar to'qnashuvi aniqlanganida mas'ul xodim ushbu xodimning

bevosita rahbariga mazkur manfaatlar to'qnashuvi va uni hal qilish uchun chora ko'rish zarurligi haqida yozma shaklda xabar qiladi;

xodimning bevosita rahbari ushbu ma'lumotni olgan paytdan boshlab manfaatlar to'qnashuvini hal qilish choralari ko'radi va bu xdkda yozma shaklda xizmat xati ko'rinishida kadrlar bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassisga xabar qiladi;

kadrlar bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassis xodimning bevosita rahbaridan ko'rilgan choralar bilan xizmat xatini olgan paytdan boshlab 5 ish kuni ichida manfaatlar to'qnashuvini hal qilish bo'yicha ko'rilgan choralarning yetarliligi va makbulligini ko'rib chiqish uchun aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi haqidagi ma'lumotlarni vazirlikning Odob-axloq komissiyasining navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritadi. Manfaatlar to'qnashuvini hal qilish bo'yicha choralar ko'rish yuzasidan qaror vazirlikning Odob-axloq komissiyasi tomonidan qabul qilinadi.

Vazirlik tizimi xodimi manfaatlar to'qnashuvi haqidagi ma'lumotni mazkur Nizomning 3-ilovasiga muvofiq rotasiya yoki tayinlash va yillik deklarasiyani to'ldirish vaqtida manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi (mavjud emasligi) to'g'risidagi ariza topshirish yo'l i bilan xar yil oshkor qilishi lozim.

Manfaatlar to'qnashuvi haqidagi ma'lumotlarni xar yili oshkor qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

vazirlik tizimi barcha xodimlari hisobot davrida yuz bergan voqealar va uzgarishlarni hisobga olgan holda, manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi yoki mavjud emasligi haqida kadrlar bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassisga bir yilda bir marta xabar berishi shart;

vazirlik tizimi xodimlari har yili 10 fevralgacha manfaatlar to'qnashuvi haqidagi ma'lumotni rotasiya (lavozimga tayinlanish)da va mazkur Nizomning 3- ilovasiga muvofiq shaklda xar yili ariza topshirishda manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi (yo'qdigi) haqidagi arizani to'liq va to'g'ri to'ldirishlari va to'ldirilgan arizani kadrlar bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassisga taqdim qilishlari lozim; vazirlikning Tashkiliy-kadrlar boshqarmasi xodimlarda manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi (yo'qligi) haqida xabar berish zarurligi to'g'risidagi topshiriqni barcha xodimlarga yetkazadi;

vazirlikning kadrlar bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassisi har yili 10 martgacha manfaatlar to'qnashuvi mavjudligini ko'rsatgan xodimlarni aniqdash uchun manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi yoki yo'qligi haqida olingan arizalarni taxlil qiladi;

manfaatlar to'qnashuvi mavjud deb topilgan xodimlar to'g'risidagi ma'lumot ularning bevosita rahbarlariga yetkaziladi kamda vazirlikning odob-axloq komissiyasiga yoki vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorat tizimini muvofiqlashtiruvchisiga yuboriladi (agarda odob-axloq komissiyasi a'zolarida manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lgan takdirda);

Odob-axloq komissiyasi xodimning bevosita rahbari va (zarurat bo'lganda) xodim ishtirokida 20 martgacha manfaatlar to'qnashuvi holatini ko'rib chiqadi va manfaatlar to'qnashuvi bilan tavsiflanadigan vaziyatlarni xal qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqadi yoki manfaatlar to'qnashuvi mavjud emasligi haqida qaror chiqaradi;

manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi/yo'qligi va ularni hal qilish bo'yicha muljallanayotgan choralar xaqidagi yakuniy qaror Odob-axloq komissiyasining bayonnomasiga kiritiladi va xodimga yetkaziladi. Manfaatlar to'qnashuvini hal qilish bo'yicha tasdiqlangan chora-tadbirlarni amalga oshirish ustidan nazorat qilish bo'yicha javobgarlik xodimning bevosita raxbari zimmasida bo'ladi.

Mavjud yoki potensial manfaatlar to'qnashuvining kelib chiqishi fakti bo'yicha ma'lumotlarni oshkor qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi: vazirlik tizimining kar qanday xodimida manfaatlar to'qnashuvi kelib chiqkanda, u bu xdkda bevosita rakbariga kakikiy yoki potensial manfaatlar to'qnashuvi sifatida tavsiflanadigan holatni batafsil bayon etib mazkur Nizomning 4-ilovasiga muvofiq shaklda xabar berishi lozim;

ko'rsatilgan ma'lumot xodimlar tomonidan manfaatlar to'qnashuvi kelib chiqkan yoki xodimga manfaatlar to'qnashuvi ma'lum bo'lgan paytdan boshlab bir ish kuni ichida yozma shaklda taqdim etilishi kerak;

xodimning bevosita rahbari xodimdan yozma xabarni olgan paytdan boshlab uch ish kuni ichida manfaatlar to'qnashuvi xdkidagi ma'lumotni ko'rib chiqishi va manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lganida xodimning manfaatlar to'qnashuvi kelib chiqish extimoli haqidagi xabarnomasida tegishli ma'lumotni to'ldirib, uni hal qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishi va qabul qilish lozim;

xabarnoma xodim tomonidan bir ish kuni ichida kadrlar bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassisga ro'yxatdan o'tkazish va hisobga olish uchun taqdim etiladi;

kadrlar bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassis xabarnomani olib, bir ish kuni ichida manfaatlar to'qnashuvini hal qilish bo'yicha ko'rilgan choralarning yetarliligi va makbulligi xdkida qaror chiqarish uchun

Odob-axloq komissiyasining eng yaqin vaqtdagi majlisi kun tartibiga kiritishi lozim. Odob-axloq komissiyasining qarori Odob-axloq; komissiyasining majlisi bayonnomasiga kiritiladi va xodimga u to'zilgan paytdan boshlab uch ish kuni ichida ma'lum qilinadi.

Odob-axloq komissiyasining a'zosi, agar unda Komissiya majlisida manfaatlar to'qnashuvi ko'rib chiqilayotgan xodimga nisbatan manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lganda qaror qabul qilishda ishtirok etmaydi;

agar manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq bo'lgan aniq vaziyat Odob-axloq komissiyasining a'zolariga aloqador bo'lsa, bunday ma'lumotlar olingan kundan boshlab bir ish kuni ichida vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha muvofiqlashtiruvchisiga taqdim etilishi lozim;

manfaatlar to'qnashuvining hal etilishiga karab vazirlikning Odob-axloq komissiyalari tomonidan manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi yoki mavjud emasligi xdkida xulosa qilinadi xdma Oliy talim, fan va innovatsiyalar iga ko'rib chiqish uchun taqdim etiladi;

vazirlik tizimi xodimlari tomonidan oshkor etilgan mavjud yoki potensial manfaatlar to'qnashuvi hamda ularni hal etish bo'yicha ko'rilgan choralar xdkidagi ma'lumot Odob-axloq komissiyasining majlisi bayonnomasi to'zilganidan sung uch ish kuni ichida Manfaatlar to'qnashuvi holatlari reyestrda aks ettiriladi.

4. Vazirlik manfaatlarining buzilishini oldini olish uchun mavjud manfaatlar

to'qnashuvini hal qilish choralari imkon kadar tezroq amalga oshirilishi lozim.

Vazirlik tizimida manfaatlar to'qnashuvini bonqarishda quyidagi choralar belgilanishi kerak:

bevosita bo'ysunadigan xodimni yaqin qarindoshi bo'lmagan boshqa shaxs bo'ysunuviga o'tkazish;

manfaatlar to'qnashuvi predmeta bo'lgan masalalarni muxokama qilishda va ular bo'yicha qaror chiqarish jarayonida katnashishdan xodimning uz ixtiyoriga kura chetlashish/o'zini o'zi rad etishi yoki uni majburan (doimiy yoki vaqtincha) chetlashtirilishi;

manfaatlar to'qnashuviga yo'l quymaslik uchun xodimning lavozim majburiyatlari doirasini kayta ko'rish;

xodim tomonidan uning shaxsiy manfaatdorligi bo'lgan va manfaatlar to'qnashuvi predmeti bo'lgan vazirlikning ma'lumotlari va hujjatlaridan foydalanilishini cheklash;

yukorirok lavozimni egallab turgan yaqin qarindosh yoki aloqador shaxsga nisbatan lavozimni kutarish, faoliyatini baholash, mukofot pullarini tulash va ish hakiga ustamalarni x,isoblash, o'qishga va treninglarga hamda har qanday masalalar bo'yicha xorijga yuborish, mehnat ta'tiliga chiqishga rozilik berish va ish haqini nazorat qilish haqida jamoaviy tarzda qaror qabul qilinishini ta'minlash;

xodimni manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq bo'lmagan mexnatga oid funksiyalarni bajarishini nazarda tutadigan lavozimga o'tkazish va boshqaa holatlar.

Istisno holatlarda, ushbu Nizomning 14-bandida sanab o'tilgan choralar manfaatlar to'qnashuvini to'liq xdl kilmagan takdirda, quyidagi hal qilish choralari kurilishi mumkin:

Xodim tomonidan vazirlikning manfaatlariga tuknash keladigan shaxsiy manfaatdorligidan voz kechishi;

Xodim tomonidan vazirlikning manfaatlariga tuknash keladigan shaxsiy manfaatdorligidan voz kechmaganda uni ishdan bo'shatish (mexnat shartnomasini bekor silish)ga tavsiya berish.

Xar bir vaziyatda, manfaatlar to'qnashuvi predmetini belgilab beradigan faktdan kelib chiqib, xodim bilan vazirlikning kelishuviga ko'ra uni hal qilishning boshqa choralari qullanilishi mumkin. Kuriladigan barcha choralar qonunchilik talablariga muvofiq bo'lishi va mazkur Nizomda belgilangan tamoyillarni amalga oshirishni ta'minlashi lozim.

**8. Mavzu: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni,
(16.06.2021-yildagi PF-6247-son).
Reja**

1. Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida.

1. Barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan Hisob palatasi, Markaziy bank, sud va prokuratura organlari hamda ularning tarkibiy va hududiy bo‘linmalari, shuningdek, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari hamda davlat unitar korxonalari (keyingi o‘rinlarda — davlat organlari va tashkilotlari) tomonidan Ochiq ma’lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlar ro‘yxati 1- ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) Adliya vazirligi hamda tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda tahlillar asosida davlat organlari va tashkilotlari tomonidan Ochiq ma’lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlar ro‘yxatini yanada kengaytirish bo‘yicha doimiy ravishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga takliflar kiritib borsin.

2. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq davlat organlari va tashkilotlari:

a) har yili:

1-martga qadar o‘z faoliyatiga oid hisobotni (davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo‘ljallangan ma’lumotlar bundan mustasno) rasmiy veb-saytlariga joylashtirib, 10-martga qadar uni keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish joyi va vaqti haqida xabar beradi;

1-aprelga qadar o‘z faoliyatiga oid hisobotni keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish uchun matbuot anjumanlarini o‘tkazadi;

b) 2021-yil 1-iyuldan boshlab quyidagilar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni O‘zbekiston Respublikasining Ochiq ma’lumotlar portaliga (keyingi o‘rinlarda — Portal) va o‘z rasmiy veb-saytlariga joylashtirib, ularni har chorakda yangilab boradi:

amalga oshirilgan davlat xaridlari, shu jumladan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar);

mansabdor shaxslarning xizmat safarlari va xorijdan tashrif buyurgan mehmonlarni kutib olish xarajatlari (xizmat safarining yoki tashrifning maqsadi, sutkalik pul, transport va yashash bilan bog‘liq xarajatlar, bundan davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo‘ljallangan ma’lumotlar mustasno);

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi hujjatlari bilan soliq va bojxona imtiyozlari hamda preferensiyalar, shu jumladan individual imtiyozlar berilgan subyektlarning benefitsiarlari (yakuniy manfaatdor jismoniy shaxslari), ular tomonidan to‘langan soliqlar va moliyaviy ko‘rsatkichlar;

o‘zlarining yillik xarajatlar smetasi va uning ijrosi, shu jumladan obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’minlash ishlari, avtomototransport vositalarini sotib olish xarajatlari;

v) 2021-yil 1-iyuldan boshlab o'z huzurida faoliyat yurituvchi jamoatchilik kengashlari bilan birgalikda rasmiy veb-saytlarida quyidagi ma'lumotlarni joylashtirib, ularning har chorakda yangilanib borilishini ta'minlaydi:

jamoatchilik kengashining tasdiqlangan a'zolari haqidagi ma'lumotlar bilan bir qatorda ularning aloqa ma'lumotlari (telefon, pochta va elektron manzillari);

jamoatchilik kengashining yig'ilishlari va kun tartibidagi masalalar;

davlat xaridlarini amalga oshiruvchi komissiyaning tasdiqlangan a'zolari to'g'risidagi ma'lumotlar (famiyasi, ismi va otasining ismi, ish joyi va egallab turgan lavozimi);

litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berishga vakolatli hamda xabarnomalarni qabul qiladigan organlarning hududlar kesimida mas'ul xodimlari, shu jumladan ushbu toifadagi hujjatlarni berishni tashkillashtiradigan tegishli komissiya a'zolari to'g'risidagi ma'lumotlar (famiyasi, ismi va otasining ismi, egallab turgan lavozimi).

3. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi va Davlat test markazining quyidagi imtihonlarni o'tkazish jarayonini Internet tarmog'ida jonli efirga uzatish tartibini joriy etish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin:

oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga kirish uchun test va ijodiy (kasbiy) imtihonlar;

oliy ta'lim muassasalarining magistratura (klinik ordinatura) bosqichiga qabul imtihonlari;

respublikadagi yoki xorijdagi oliy ta'lim muassasasidan respublikadagi davlat oliy ta'lim muassasasiga o'qishni ko'chirish istagini bildirgan talabalardan olinadigan imtihonlar;

xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olishda talabgorlardan olinadigan test sinovlari.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Davlat test markazi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda:

tizimida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralarni jalb qilgan holda 2021/2022 o'quv yili qabuliga qadar "transfer.edu.uz" platformasi negizida mazkur bandda ko'rsatilgan imtihon jarayonlarini Internet tarmog'ida jonli efirga uzatishni ta'minlaydigan, barcha foydalanuvchilar uchun ochiq bo'lgan "imtihon.uz" veb-platformasini ishga tushirsin;

bir oy muddatda imtihonlarni (test sinovlarini) o'tkazish jarayonini Internet tarmog'ida jonli efirga uzatish bo'yicha texnik talablarni (o'rnatiladigan videokameralar va tasvir sifati, joylashish sxemasi va boshqalar) ishlab chiqsin;

mazkur bandda ko'rsatib o'tilgan talablarga rioya qilmaydigan mas'ullarga nisbatan qat'iy javobgarlik choralarini ko'rish bo'yicha takliflarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Hukumatga kiritib borsin.

4. Quyidagilar 2021-yil 1-iyuldan boshlab qayd etilgan ma'lumotlarni Portalga joylashtirish va ularning har chorakda yangilanishini ta'minlasin:

Hisob palatasi, Moliya vazirligi, nazorat qiluvchi organlar — davlat siri bo'lgan ma'lumotlarning yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirning muhofaza

qilinishini ta'minlagan holda o'tkazilgan har bir taftish va tekshiruv (nazorat obyektini nomi, taftish yoki tekshiruvning maqsadi va muddatlari, uni o'tkazgan davlat xizmatchisining lavozimi, familiyasi, ismi) to'g'risidagi ma'lumotlarni (tegishli nazorat qiluvchi organning rahbarini xabardor etgandan so'ng);

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi — ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar hamda davlat unitar korxonalar (keyingi o'rinlarda — davlat ishtirokidagi korxonalar) ro'yxatini (davlat nomidan aksiyador (ishtirokchi, mulkdor) funksiyalarini amalga oshirayotgan tashkilot, korxonada hududi, soliq to'lovchining identifikatsiya raqami, davlat ulushi to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rsatgan holda), shuningdek, ustav fondining (ustav kapitalining) 50 foizi va undan ortig'i davlat ishtirokidagi korxonalarga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar ro'yxatini;

Moliya vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, vazirlik va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari — o'zlari aksiyador (ishtirokchi, mulkdor) funksiyalarini bajaruvchi davlat ishtirokidagi korxonalarining ijroiya organi (direktor, boshqaruv raisi, boshqaruv a'zolari) va kuzatuv kengashi a'zolarining ismi va familiyasi to'g'risidagi ma'lumotlarni;

Davlat soliq qo'mitasi — davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan yil (chorak) yakuni bo'yicha to'langan dividendlar to'g'risidagi ma'lumotlarni;

Moliya vazirligi — davlat ishtirokidagi korxonalarga sarflangan Davlat byudjeti mablag'lari, tegishli xaridlar, xorijdan jalb etilgan mablag'lar, shu jumladan davlat tashqi qarzi summalarini hamda ularning sarflanishi to'g'risidagi ma'lumotlarni;

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi — davlat muassasalari ro'yxatini (tashkil topgan sanasi, yuqori turuvchi organ) hamda xususiylashtirilgan davlat mulki obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlarni (davlat sirini tashkil etuvchi maxfiy vazifa yuklatilgan davlat korxonalarini va muassasalari bundan mustasno).

5. Moliya vazirligi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2021-yil 1-sentyabrga qadar Portalning davlat xaridlari bo'yicha maxsus axborot portali bilan integratsiya qilinishini ta'minlasin.

6. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi 2021-yil 1-avgustga qadar doimiy ravishda yangilab turiladigan Ov qilish va ovchilik xo'jaliklari to'g'risidagi axborot bazasini Qo'mitaning rasmiy veb-saytida va Portalda ishga tushirsin.

Bunda, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi bilan birgalikda "Ov qilish va ovchilik xo'jaligi to'g'risida"gi Qonunning 36-moddasida ko'rsatilgan ma'lumotlar bilan bir qatorda quyidagi ma'lumotlar mazkur axborot bazasida aks ettirilishini ta'minlasin:

ovchilik xo'jaligini yuritish uchun ov qilish joylarini berish to'g'risidagi tuzilgan barcha shartnomalar, ovchilik xo'jaligini yuritish huquqi tugatilgan holatlar hamda undirilgan haq miqdorlari;

yovvoyi hayvonlarni tutishga doir ruxsatnoma berilgan barcha shaxslar va ruxsatnomadagi ma'lumotlar hamda undirilgan haq miqdorlari;

O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan yovvoyi hayvonlarni tabiiy

muhitdan ajratib olishga doir berilgan barcha ruxsatnomalar va ulardagi ma'lumotlar hamda undirilgan haq miqdorlari;

O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasining o'rmon-ovchilik xo'jaliklari tomonidan berilgan ovchilik yo'llanmalari (yovvoyi hayvonlarni tutish kartochkasi) hamda undirilgan haq miqdorlari.

7. Agentlikning davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash borasidagi vazifalarini belgilash maqsadida:

a) Agentlik zimmasiga quyidagi qo'shimcha vazifalar yuklatilsin:

davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash sohasini muvofiqlashtirish va doimiy monitoring qilish, shu jumladan ularning normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan ma'lumotlarni Internet tarmog'iga joylashtirish (e'lon qilish) bo'yicha majburiyatlari hisobini yuritish;

davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan ommaviy axborot vositalari orqali samarali jamoatchilik nazoratini o'rnatish bo'yicha choralarning ishlab chiqilishi va joriy etilishiga ko'maklashish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlaridan kelib chiquvchi davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligiga oid dolzarb masalalarni "Mening fikrim" veb-portali orqali umumxalq muhokamasiga chiqarish;

Ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar ro'yxatini uzluksiz to'ldirish, takomillashtirib borish va yangilab borish bo'yicha takliflar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirishga ko'maklashish;

ommaviy axborot vositalari orqali davlat organlari va tashkilotlari xizmatchilariga "davlat organlari faoliyati ochiqligi, shaffofligi va hisobdorligi" madaniyatini singdirish hamda davlat organlari va mansabdor shaxslar xalq oldida hisobdorligini ta'minlash muhimligi to'g'risida tushuntirish ishlari olib borilishini tashkil etish;

b) Agentlik tuzilmasida boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni va mehnatga haq to'lash fondi doirasida Davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqligini ta'minlash boshqarmasi tashkil etilsin;

v) Agentlik; davlat organlari va tashkilotlarining ochiqlikka oid qonunchilik hujjatlarida ko'rsatilgan talablarni muntazam ravishda buzayotgan aybdor mansabdor shaxslarini javobgarlikka tortish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritib borsin;

Har yili faoliyat yo'nalishi bo'yicha erishgan asosiy yutuqlar hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida uchrayotgan kamchiliklar yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot tayyorlasin va o'z rasmiy veb-sayti orqali e'lon qilib borsin;

"Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi Qonun amalga oshirilishi ustidan nazoratni, shuningdek, Jahon odil sudlov loyihasining "Hukumatning ochiqligi" indikatorini bo'yicha O'zbekiston Respublikasining o'rnini yaxshilashga oid kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

8. Davlat organlari va tashkilotlarining axborot xizmatlari hamda murojaatlar bilan ishlash bo'linmalariga mazkur organlarda ochiqlikka oid qonunchilik hujjatlarining ijro etilishini o'z vaqtida va sifatli ta'minlash vazifasi yuklatilsin.

9. Davlat xavfsizlik xizmati Adliya vazirligi, Agentlik hamda boshqa manfaatdor

vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda quyidagilarni nazarda tutuvchi “Davlat sirlarini saqlash to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi qonun loyihasini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda kiritilishini ta’minlasin:

cheklab qo‘yilgan axborotlar ro‘yxati, undan foydalanish va ma’lumotlarni bunday axborotlar jumlasiga kiritish hamda chiqarish asoslari, muddatlari va tartibi;

cheklab qo‘yilgan axborotlar ro‘yxatiga kirmaydigan ma’lumotlarni maxfiylashtirishni taqiqlash;

cheklab qo‘yilishi fuqarolarning shaxsiy xavfsizligiga tahdid soladigan axborotlarning davlat sirlariga kiritilishini man etish;

fuqarolar, davlat organlari va boshqa tashkilotlarning davlat xizmatchilari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga davlat sirini tashkil etuvchi ma’lumotlar bilan ishda foydalanishga ijozatni rasmiylashtirish shartlari va tartiblari;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi va ilg‘or tendensiyalarni hisobga olgan holda davlat sirlarini saqlashning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqish va takomillashtirish.

10. Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida ochiqlik darajasini yanada oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

11. Agentlik Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Adliya vazirligi, Davlat statistika qo‘mitasi bilan birgalikda 2021-yil 1-oktyabrga qadar davlat organlari va tashkilotlarida ochiqlikni ta’minlash bo‘yicha faoliyatni tartibga soluvchi, shu jumladan monitoring o‘tkazish, amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi va natijadorligini baholash, ochiqlik indeksini hisoblashga qaratilgan Davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqligini monitoring qilish va baholash bo‘yicha metodikani ishlab chiqsin va belgilangan tartibda kiritin.

12. Belgilab qo‘yilsinki, 2021-yil 1-dekabrda boshlab:

mazkur Farmonning 11-bandida ko‘rsatilgan metodika asosida har yil yakuni bo‘yicha davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining Ochiqlik indeksi aniqlanadi;

Agentlik Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi hamda Adliya vazirligi bilan birgalikda belgilangan tartibda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining Ochiqlik indeksini aniqlash bo‘yicha choralarni ko‘radi, natijalarni o‘z rasmiy veb-saytlari va ommaviy axborot vositalari orqali ommaga yetkazilishini ta’minlaydi.

13. Oliy Majlis palatalariga o‘z rasmiy veb-saytlarida quyidagi ma’lumotlarni joylashtirish tavsiya etilsin:

parlament nazorati obyektlarining hisobotlarini eshitish natijalari bo‘yicha qabul qilingan qarorlar;

Qonunchilik palatasida deputatning har bir qonun (qaror) loyihasini qabul qilish yoki rad etishdagi, senatorning har bir qonunni (qarorni) ma’qullash yoki rad etishdagi ishtiroki to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

Oliy Majlis Senati a’zosi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar hamda Toshkent shahar, tuman va shahar Kengashlari deputatlari, saylov okruglari hamda ularning elektron pochta manzillari haqidagi ma’lumotlar.

14. O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi va Agentlik:

a) O‘zbekiston Milliy axborot agentligi bilan birgalikda ommaviy axborot

vositalarida mazkur Farmonning maqsad va vazifalarini yoritishga oid maqolalar va teleko'rsatuvlarni tashkil etsin;

b) manfaatdor davlat organlari va tashkilotlar bilan birgalikda 2021-yil 1-dekabrda boshlab quyidagi tadbirlar telekanallar, shuningdek, Internet tarmog'i orqali jonli efirga uzatilishini ta'minlasin:

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati majlislari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi sessiyalari (yopiq majlislar bundan mustasno);

tarafdarning roziligi bilan fuqarolar huquq va erkinliklari hamda jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi, aholi sog'lig'ini saqlash, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi, shu jumladan davlat xizmatchilarining kasbiy faoliyati bilan bog'liq huquqbuzarliklarga oid ishlar, shuningdek, ayrim oilaviy nizolarga oid fuqarolik ishlari bo'yicha sud majlislari (yopiq sud majlislari bundan mustasno).

15. Mazkur Farmonda ko'rsatilgan qoida va tartiblarning buzilishi davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi to'g'risidagi qonunchilik buzilishi sifatida baholansin.

16. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi Agentlik, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi, Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda xalqaro standartlarni inobatga olgan holda:

2022-yil 1-yanvarga qadar "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonun loyihasi konsepsiyasini;

2022-yil 1-aprelga qadar ushbu qonun loyihasini ishlab chiqsin hamda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritсин.

17. Agentlik Adliya vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga mazkur Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida takliflar kiritсин.

18. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Z.Sh. Nizomiddinov zimmasiga yuklansin.

O'ZINI O'ZI NAZORAT QILISHGA OID SAVOLLAR

1. "Manfaatlar to'qnashuvi" deganda nima tushunasiz?
2. Qaysi davlat organlari manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiradi?
3. Manfaatlar to'qnashuvi sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlarining vakolatlarini ayting.
4. O'zbekiston Respublikasi "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunida, manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga doir qanday chora- tadbirlar belgilangan?
5. Manfaatlar to'qnashuvi sifatida baholanadigan vaziyatlarni sanab bering.
6. "Aylanma eshiklar" ?

7. “O‘zbekiston Respublikasi adliya organlari va muassasalari xodimlarining odob-axloq qoidalari”ga ko‘ra, Adliya organlari va muassasalari xodimlari qanday qoidalarga rioya qilishlari lozim?
8. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun qanday javobgarlik mavjud?
9. Manfaatlar to‘qnashuvi deganda nima tushunasiz?
10. Korrupsiyaga qarshi komplayens-nazorat tizimi maqsadini aniqlang.
11. Korrupsiyaviy holatlarni yuzaga keltiruvchi manfaatlar to‘q nashuvi deganda nima tushuniladi?
12. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar deganda nima tushuniladi?
13. Korrupsiyaviy jinoyatlar kelib chiqishining, shartli ravishda, qanday omillar bilan bog‘lash mumkin?
14. Korrupsiyaviy jinoyatlarning sodir etilishiga sharoit yaratuvchi omillar bu illat ustidan tashkiliy-boshqaruv va ijtimoiy nazorat yetarli emasligi hisoblanadi. Ularga nimalar kiradi?
15. Korrupsiyaviy faoliyatdan keladigan foydani kamaytirishga qaratilgan choralarga nimalarni kiritish mumkin?
16. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida axborot berayotgan shaxslar qanday himoya bilan ta‘minlanadi?
17. Davlat organlari xodimlarining korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to‘g‘risida xabar qilish majburiyati: muammo va yechimlar.
18. O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaviy jinoyatlar sodir etilishining oldini olishda qanday yo‘nalishlar mavjud?
19. Korrupsiyaviy jinoyatlar sodir etilishiga sabab bo‘lgan qanday omillar mavjud?
20. Korrupsiyaviy jinoyatlar sodir etilishini profilaktika ishlaring qanday usullari mavjud?
21. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida “mansabdor shaxs” tushunchasi qaysi qonunchilik aktida belgilangan?
22. Mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilgan qaysi qilimishlar korrupsion jinoyatlar sifatida baholanishi mumkin?

MAVZUGA TEGISHLI TAYANCH ATAMA VA IBORALAR

Manfaatlar to‘qnashuvi, mansabdor shaxs, boshqaruv xodimi, aloqador shaxslar, mavjud manfaatlar to‘qnashuvi, ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi, odob-ahloq komissiyasi, Manfaatlar to‘qnashuvini hisobga olish reestri, javobgarlik, shaxsiy manfaatlar, yaqin qarindoshlar.

FOYDALANISHGA TAVSIYA ETILADIGAN ASOSIY VA QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari:

Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 692 b.

Shavkat Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. – 508 b.

Shavkat Mirziyoyev. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2019. – 400 b.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi, 2020-yil 30 dek.

Normativ-huquqiy xujjatlar:

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – T., 2019.

O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. – T., 2019.

O‘zbekiston Respublikasining Mexnat kodeksi. – T., 2019.

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni;

O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi PF- 5729-sonli “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi gi PF–6013-sonli “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2003-yil 31-oktyabrdagi “Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha Konvensiyasi” (O‘zbekiston Respublikasi tomonidan 2008-yil 7-iyulda ratifikatsiya qilingan).

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1989-yil 24-maydagi “Jamoat tartibini saqlovchi mansabdor shaxslarning axloq va odob kodeksiga oid rahbariy ko‘rsatmalar” (O‘zbekiston Respublikasi tomonidan 1997-yil 30-avgustda ratifikatsiya qilingan).

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to‘g‘risida»gi 2011-yil 11-fevraldagi 1- sonli qarori

2007-yildagi “Iqtisodiy rivojlanish tashkilotining korrupsiyaga qarshi kurashga oid Istanbul harakat rejasi”. (O‘zbekiston Respublikasi tomonidan 2009-yilda ratifikatsiya qilingan).

Darslik, o‘quv qo‘llanma, monografiya va ilmiy maqolalar

Alimov G.A. Mansabdor shaxslarning qonunlar ijrosi ustidan javobgarlikni kuchaytirishning dolzarb masalalari. Xorijiy va milliy tajriba: Monografiya. – T., 2017. – 194 b.

Alimov G.A. Yuridik shaxslarning korrupsion huquqbuzarliklar uchun javobgarligini tartibga soluvchi xalqaro standartlar tizimi: Monografiya. – T., KOMRONPRESS. 2019. – 160 s.

Alimov G.A., Israilov B.I. Tenevaya ekonomika, korrupsiya, vzyatochnichestvo: ugovno-pravovaya otsenka: Monografiya. – T.: “Izdat. dom Innovatsionnogo razvitiya». 2020. – 202 s.

Pulatov Yu.S., Alimov G.A. Kvalifikatsiya i preduprejdeniye korrupsionnykh prestupleniy: Monografiya. – T., 2016 – 148 s.

Yuridik ensiklopediya. – T., 2001. – 258-b.

Internet manbaalar:

O‘zbekiston Respublikasi davlat sayti:www.gow.uz

O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali: www.gov.uz

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi sayti:www.adliya.uz

O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi: <http://lex.uz>

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi sayti: www.parliament.gov.uz

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati sayti: www.senate.gov.uz

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi sayti www.ksu.uz O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sayti: www.supcourt.uz

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi sayti: www.minjust.uz

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi sayti: www.mvd.uz O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi sayti: genprok.gov.uz

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun xujjatlari monitoring instituti sayti: www.imal.uz